OQILXON IBROHIMOV, JAMIL SADIROV

MUSIQA

7-sinf uchun darslik

Qayta ishlangan va to‘ldirilgan nashri

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2017

UO‘K 372.878 (075)
KBK 85.31 ya 71
I 14

T a q r i z c h i l a r

G. Dadabayeva – Respublika ta’lim markazi “Musiqa, san’at, mehnat ta’limi, jismoniy kamolot va salomatlik” bo‘limi bosh metodisti;

Q. Mamirov – Pedagogika fanlari nomzodi, professor;

F. Muhiddinova – Toshkent shahar Uchtepa tumanidagi “Orom” nomli 38-umumta’lim maktabining musiqa madaniyati fani o‘qituvchisi;

Z. Zakirova – Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 17-umumta’lim maktabining musiqa madaniyati fani o‘qituvchisi.

Ibrohimov Oqilxon, Sadirov Jamil
Musiqa: 7-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan nashri. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.–160 b.

UO‘K 372.878 (075)
KBK 85.31 ya 71

© O.Ibrohimov, J.Sadirov
© G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017

ISBN 978-9943-4798-5-2

SO‘ZBOSHI

Aziz o‘quvchilar, istiqlol sharofati ila ko‘p asrlik musiqiy merosimizga milliy-ma’naviy qadriyatlarimiz qatorida alohida e’tibor berila boshlandi. Endilikda Siz ham xalqimizning ajoyib, xilma-xil va bir-biridan go‘zal mahalliy musiqiy an’analaridan, mumtoz musiqaning yuksak durdonalari bo‘lmish maqom namunalaridan ma’naviy zavq olish, ruhiy bahramand bo‘lish imkoniga ega bo‘ldingiz.

Buning uchun Siz o‘zingizda kuy-ohanglarning sof buloqlari bo‘lgan xalq kuy-qo‘shiqlari-yu mumtoz maqomlarni qalb ila tinglash madaniyatini, ularni zarur darajada ijro eta olish malakalarini hosil etmog‘ingiz kerak. Shundagina siz iste’dodli ajdodlarimiz ijodi bois qadimdan davom etib kelayotgan boy badiiy an’analarimiz silsilasiga ma’nan bog‘lanishga erisha olasiz. Zero, milliy musiqa xalqimiz boy ma’naviyatining, barkamol ruhiyatining sadolardagi badiiy go‘zal ifodasi va ayni paytda, yangi, Buyuk Davlat bunyodkori bo‘lmish jamiyatimizning ruh quvvati va jon ozig‘idir.

Aziz o‘quvchilar, qo‘lingizdagi darslik sizga xalqimizning ana shunday qadimiy va doimo navqiron bo‘lgan ajib navolarini qalbingizga jo qilishda ko‘mak beradi, degan umiddamiz. Shu bilan birga, Siz jahon mumtoz musiqa namunalaridan ham bahramand bo‘lasiz.

Ushbu jihatlarni batafsil o‘rganish maqsadida o‘quv yilimizning birinchi choragida Surxondaryo – Qashqadaryo, Buxoro – Samarqand, Xorazm va Farg‘ona – Toshkent musiqa uslublarini o‘rgansak, ikkinchi chorakda esa Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘llarini o‘zlashtiramiz. Shuningdek, uchinchi chorakda jahon musiqa madaniyati, to‘rtinchi chorakda esa zamonaviy O‘zbekiston musiqa san’ati bilan tanishasiz.

Dars davomida berilgan mavzu bo‘yicha suhbatlar uyushtiriladi. Shuningdek, musiqa tinglash, ovozda aytim mashqlarini bajarish, qo‘shiq kuylash kabi faoliyat turlaridan ham keng foydalaniladi.

Har bir chorak yakunida berilgan musiqa lug‘ati bilim doirangizni kengaytirib borishingizda qo‘l kelishi mumkin.

Darslikdan unumli foydalanish uchun quyidagi shartli belgilarni eslab qoling:

– musiqa tinglash

– aytim mashqlari

– qo‘shiq kuylash

– notaga qarab kuylash

– mustaqil o‘qish

– musiqa savodi

?! – savol va topshiriqlar

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI

Abdulla Oripov so‘zi *Mutal (Mutavakkil) Burhonov* musiqasi

Tantanavor



Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

N a q a r o t :

Oltin bu vodiylar — jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash’ali, tinchlik posboni,
Haqsevar, ona yurt, mangu bo‘l obod!

N a q a r o t

I CHORAK

XALQ MUSIQASINING MAHALLIY USLUBI

1-Mavzu. SURXONDARYO – QASHQADARYO MUSIQA USLUBI HAQIDA TUSHUNCHA

Surxondaryo – Qashqadaryo musiqa uslubi deganda, asrlar davomida shakllangan mehnat aytimlari, mavsumiy marosim qo‘shiqlari, cho‘ponlar ijodi, baxshilar san’ati va xalq ijodiga oid yana ko‘plab aytim va cholg‘u kuylari tushuniladi. Shuni ham aytish kerakki, musiqiy an’analarning kelib chiqish negizlari qadimiy davrlarga taalluqli bo‘lib, ular turli vaziyatlarda, xalqning turmush tarzi bilan bog‘liq turfa ko‘rinishlarda, xususan, mehnat jarayonlarida, oilaviy sharoitda o‘tkaziladigan urf-odat va marosimlarda, ommaviy sayil va tantanalarda yuzaga keladi.

Surxondaryo – Qashqadaryo hududlarida yashovchi mahalliy aholi uzoq davrlardan buyon chorvadorlik va dehqonchilik

mehnati bilan shug‘ullanib keladi. Shu bois ham bu yerlarda mehnat jarayonlari bilan bog‘liq aytim va cho‘pon kuylari juda ko‘plab ijod etilgan. Dastlab iste’dodli shaxslar tomonidan (yakka yoki jamoa ishtirokida) aytilib, so‘ngra el orasida og‘izdan-og‘izga o‘tib ommalashgan mehnat qo‘shiqlari bizga qadar xalq xotirasida va mehnat amaliy tajribasi faoliyatida saqlanib kelindi. Bundan tashqari, mavsumiy marosim, ommaviy bayram va xalq sayillari (“Navro‘z bayrami”, “Lola sayli”) qo‘shiqlari hamda qarsak-o‘yin aytimlari va yana ko‘plab ommaviy qo‘shiq-kuylari o‘tmishdan bizning davrimizga meros bo‘lib qoldi.

Musiqiy merosning ulkan qismi bo‘lgan dostonlarni baxshilar o‘z xotiralari va ijodlarida saqlab, ijro etib kelmoqdalar.

Shuningdek, Surxondaryo — Qashqadaryo an’anaviy cholg‘ulari qatorida do‘mbira, qo‘biz, cho‘pon nay, sibiziq, changqobuz va doiralar uzoq o‘tmishdan buyon mahalliy aholi orasida ardoqlanib, ularda turfa kuylar ijro etib kelinmoqda.

Do‘mbira cholg‘usi Surxondaryo — Qashqadaryo mahalliy musiqasida keng joriy etilgan sozlardan bo‘lib, ayniqsa, baxshi va cho‘ponlar tomonidan sevib ijro etiladi.

Surxandaryo – Qashqadaryo musiqa yo‘nalishidagi kuy-qo‘shiqlardan namunalar tinglang.

DO MAJOR TUZUGI



O‘ZBEKISTON – ONAJON

Qambar Ota she’ri — *Muhammad Otajonov* musiqasi

Tez



Yer, osmonning orasi,
Olamning eng sarasi,
Avlod meros Vatanim
Qadri baland bo‘stonim.

N a q a r o t:

Onajon O‘zbekiston,
Jonajon O‘zbekiston.

Saxovatli, fidokor,
Dunyoda eng baxtiyor.
Sodiqlikda bolangga
Tanilgansan olamga.

N a q a r o t

Oy husnda yetolmas,
Quyosh shaydo, ketolmas,
Ko‘k toqingda yulduzlar,
Baxt taratar kunduzlar.

N a q a r o t

Bir yoningda Jayhundir,
Bir yoningda Sayhundir.
Mehringdir nur tarami,
Bag‘ring dillar oromi.

Himmati hayotga teng,
Insonparvar, bag‘ri keng,
Onajon O‘zbekiston,
Jonajon O‘zbekiston.

N a q a r o t

SURXONDARYO – QASHQADARYO DOSTONCHILIK AN’ANALARI

Doston adabiy-musiqiy asardir. Uning tarkibida nasriy va she’riy ohang qismlari bo‘lib, ular mazmunan o‘zaro mushtarak bo‘ladi.

Surxondaryo – Qashqadaryo doston ijrochilarini s h o i r yoki b a x s h i deb yuritadilar. Baxshilar san’atida so‘z ustasi, qo‘shiq kuylovchisi va soz (do‘mbira) cholg‘uchisi birlashgan bo‘ladi. Binobarin, baxshilar dostonlarning nasriy qismlarini mahorat bilan badiiy so‘zlab hikoya etsalar, she’riy bo‘laklarini qo‘shiq shaklida maxsus ichki (“bo‘g‘iq”) ovoz bilan kuylaydilar va bunda do‘mbira sozidan jo‘rnavoz sifatida foydalanadilar.

Dostonlarni ijro etish mavsumi asosan kech kuzda, qishloq ahli dehqonchilik bilan bog‘liq yig‘im-terim ishlarini tugatgandan so‘ng boshlanib,to erta bahorga qadar davom etadi. Odatda, baxshilar mahalliy aholi tomonidan maxsus uyushtirilgan dostonchilik kechalarini o‘tkazish uchun qishloq xonadonlaridan biriga taklif etilgan. Bu xonadonga mahalla ahli, qo‘ni-qo‘shnilar ham yig‘ilishib, baxshining doston ijrolarini tinglashgan. Bunday kechalar bir necha kungacha davom etishi mumkin bo‘lgan. Bundan tashqari, baxshilarni

oilaviy bayram, to‘y marosimlari va boshqa tantanalarni o‘tkazishga ham taklif etganlar.

Dostonlarni kuylash tartib-qoidalariga ko‘ra, avvalo, termalar aytiladi.

Terma biror bir doston ijrosidan oldin baxshi tomonidan kuylanadigan aytim bo‘lib, bunda baxshi o‘z bisotida bor dostonlarni qisqacha ta’riflaydi va shu tariqa tinglovchilarga qarata “Qay dostondin aytayin”, deb murojaat etadi. Tinglovchilar tanlovi, xohish-ixtiyori ham sabab bo‘lib, baxshi o‘z bisotidan bir dostonni kuylashni boshlaydi.

Shoberdi Baxshi Boltayev

“Go‘ro‘g‘li” yoki “Alpomish” dostonidan parcha tinglang.

QAY DOSTONDIN AYTAYIN

Baxshi termasi

Shoshmasdan





E ...

?! 1.“O‘zbekiston – onajon” qo‘shig‘ining bosh tayanch (tonika) pardasini aniqlang.

2.6/8 takt o‘lchoviga qanday dirijyorlik qilish lozimligini o‘ng qo‘l harakati bilan ko‘rsating.

3.Quyida keltirilgan “O‘zbekiston – onajon” qo‘shig‘ining kuy jumlasiga she’r so‘zlarini moslab yozing.

4.Yuqoridagi nota misolida qaysi tovushlar orasida yarim ton va butun tonlar kelganligini aniqlang.

5.Surxondaryo – Qashqadaryo musiqa uslubi haqida gapiring.

6.Surxondaryo – Qashqadaryo an’anaviy musiqa cholg‘ularini aytib bering.

7.Baxshilar haqida nimalarni bilasiz?

2-Mavzu. BUXORO – SAMARQAND MUSIQA USLUBI HAQIDA TUSHUNCHA

Buxoro – Samarqand musiqa uslubi deganda, Buxoro va Samarqand shaharlari va viloyatlari hududlarida qaror topgan musiqiy an’analar tushuniladi. Diyorimizning qadimiy madaniyat maskanlari bo‘lmish bu vohalarda xalq qo‘shiqlari, ashulalari, cholg‘u kuylari, qarsak o‘yin – aytimlari hamda kasbiy musiqaga doir dostonchilik, sozanda san’ati va maqom namunalari keng o‘rin tutadi.

Mazkur uslubning o‘ziga xos jihatlaridan biri – ikki tillilik, ya’ni o‘zbek va tojik tillari an’anasining namoyon

bo‘lishidir. Bu holat ushbu sarhadda yashab, faoliyat ko‘rsatgan ko‘pgina shoirlar, jumladan, Mujrim Obid, Abdullo Mulham Buxoriy, Fitrati Zardo‘zi Samarqandiy, Muznib Shavkatiy Kattaqo‘rg‘oniylar ijodida, shuningdek, ikki tilda ijro etib kelinayotgan o‘zbek va tojik xalqlarining yuksak mumtoz musiqa namunasi bo‘lgan Shashmaqom (Buxoro maqomlari) turkumida o‘z aksini topgan.

Ikki tillilik an’anasi xalq musiqasida o‘zgacha shakllarda aks etadi. Chunonchi, ayrim xalq qo‘shiqlarini ayni vaqtning o‘zida ham o‘zbek, ham tojik tillarida kuylash mumkin. Odatda, qo‘shiqning bandlari o‘zbek tilida, naqarotlari esa tojik tilida, ba’zan aksincha ham bo‘ladi. Bundan tashqari, ayrim xalq qo‘shiqlarini o‘zbek yoki tojik tillarida kuylash imkoni mavjuddir. Shuningdek, faqat bir tilda— yo o‘zbek, yo tojik tilida kuylash uchun ijod etilgan xalq qo‘shiqlari ham uchraydi.

Xalq kundalik turmush tarzida, bayram-u to‘y-tomoshalarida musiqa muhim o‘rin tutib keladi. Jumladan, bahor mavsumi bilan bog‘liq “Guli surx” xalq marosimi tantanalarida qo‘shiqlar aytilgan, “Qayroq o‘yin”, “Zang o‘yin” kabi buxorocha raqslarga tushilgan.

“BALJUVON” xalq kuyi.



▲ Ovoz sozlash mashqlari:

△ **TINCHLIK BO‘LSIN**

Halima Ahmedova she’ri *Xurshida Hasanova* musiqasi

Marsh sur’atida

Bu-lut ko‘k-ni qop-la-ma-sin, Qu-yosh kul-sin, Qu-yosh-kul-sin,

1.Quyosh ko‘kni qoplamasin,
Quyosh kulsin, quyosh kulsin.
Biz istaymiz bu dunyoda,
Tinchlik bo‘lsin, tinchlik bo‘lsin.

2.Onajonim allasidan,
Yer-u osmon orom olsin,
Bog‘imizga xo‘p yarashgan,
Hayot guli hech so‘lmasin.

Qaldirg‘ochlar qanotida,
Dunyoga baxt olib kelsin.
Turnalarning bayotida,
Tinchlik bo‘lsin, tinchlik bo‘lsin.

Onajonim allasidan,
Yer-u osmon orom olsin,
Bog‘imizga xo‘p yarashgan,
Hayot guli hech so‘lmasin.

N a q a r o t:

Tinchlik bo‘lsin, tinchlik bo‘lsin,
Tinchlik bo‘lsin, bu dunyoda.
Bolalarning baxti uchun.
Tinchlik bo‘lsin bu dunyoda,
Olam to‘lsin obod bo‘lsin,
Kelajak umidlar haqqi,
Tinchlik bo‘lsin bu dunyoda.

“Tinchlik bo‘lsin” (H.Ahmedova she’ri, X.Hasanova musiqasi) qo‘shig‘i orqali tasavvurni boyitish.

X.Hasanovaning tinchlik mavzusiga bag‘ishlangan mazkur “Tinchlik bo‘lsin” qo‘shig‘ida osmonimiz doim musaffo, tabiatimiz go‘zal, hayotimiz osuda bo‘lishi tarannum etiladi. Bu mavzuni ifodalashda kompozitor 4/4 o‘lchovi, minor va major tonalliklari va shu asosda tuslanib rivojlanuvchi kuy ifoda vositalaridan unumli foydalangan. Band-naqarot shakliga ega bu qo‘shiqning bandi “re-minor” tonalligida bayon etilgan. Naqaroti esa “fa-major” tonalligida kelib, 2 va 3 ovozda kuylanadi. Shu asosda ijodkor qo‘shiqda ilgari surilgan tinchlik g‘oyasini yorqin ohang bo‘yoqlarida alohida ta’kidlaydi. Qo‘shiqning naqarot bilan yakunlanishi ham tinchlik g‘oyasini yana bir bor ta’kidlaydi.

?! 1. Buxoro – Samarqand musiqa uslubiga qisqacha tushuncha bering.
2. “Tinchlik bo‘lsin” qo‘shig‘ida qanday g‘oya aks etgan?
3. “Tinchlik bo‘lsin” qo‘shig‘ini 4/4 o‘lchoviga o‘ng qo‘lda dirijyorlik qilib, notalar asosida (solfejio) kuylang.

3-Mavzu. SOZANDA SAN’ATI

Buxoro – Samarqand musiqa uslubida sozandachilik san’ati ham shakllangan bo‘lib, u ayollar ijodi bilan bog‘liqdir. Sozanda – bu yakkaxon aytimchi bo‘lib, u qo‘lida qayroq yoki zang (qo‘ng‘iroqcha) ushlab raqsga tushadi hamda qo‘shiq bandlarini kuylaydi. Ikki-uch ayoldan iborat doirachilar dastasi esa naqarotlar bilan jo‘r bo‘lib turadi. Demak, sozanda dastasi (ansambli)da jami uch-to‘rt ayol – yakkaxon sozanda, doirachi, naqarotchi qatnashadi.

An’anaga ko‘ra, sozanda dastalari o‘z san’atini faqat xotin-qizlar davrasida o‘tkaziladigan yig‘in, to‘y va turli bayramlarda namoyish etadi. Ularning repertuari o‘zbek va

tojik tilida bo‘lgan ko‘p qismli o‘yin-aytim turkumlaridan iborat bo‘ladi. Shuningdek, aytim qo‘shiqlarni ham o‘zbek, ham tojik tillarida kuylash an’anasi mavjud. Odatda, sozanda o‘z aytimini vazmin, lekin tantanavorlik ruhi bilan sug‘orilgan “To‘y muborak” qo‘shig‘i bilan boshlaydi. So‘ngra asta jadallashib boruvchi raqs — o‘yin aytimlari birin-ketin, to‘xtovsiz ijro etila boshlanadi.

Doirachilar ham naqarotlar, ham usullar bilan jo‘r bo‘lib turishadi, ba’zan esa turkum davomida ikki xil tuzilishga ega ritmlarni o‘zaro mutanosib ijro etadilar.

BO‘YI-BO‘YI

Xalq qo‘shig‘i

O‘rtacha





▲ Ovoz sozlash mashqlarini kuylang.

a) **Shoshmasdan**



b)

△ **EY NOZANIN**

Muqimiy g‘azali *Xalq kuyi*

de- vo- na-man (o),
Oq- shom- la- ri (yo) uy- qum kel- may (o)
to‘l-g‘o- na- man (o).
Oq-shom- la- ri (yo) uy-qum kel- may (o)
to‘l- g‘o- na- man (o).
Pa-ri — lar — dek o-chib yu-zing,
ni-hon bo‘l-ding (o), pa-ri- lar-
dek o -chib yu-zing ni- hon
bo‘l- ding. Xud- ba- xud-



Ey, nozanin, ishqing bilan devonaman,
Oqshomlari uyqum kelmay to‘lg‘onaman.

Parilardek ochib yuzing, nihon bo‘lding,
Xudba-xudba rashkim kelib qizg‘onaman.

Kichik nota misolida interval turlarini aniqlang. Hurmatli o‘quvchilar! Quyida keltirilgan nota misolidagi tovushlarning interval nisbatlarini aniqlang. Eslatib o‘tamiz, oddiy intervallar quyidagicha nom va raqamlar bilan belgilanadi: prima -1, sekunda-2, tersiya- 3, kvarta-4, kvinta-5, seksta-6, septima-7, oktava-8.



?! 1. Buxoro sozanda ansmblida kimlar ishtirok etadi?
2. Buxoro – Samarqand musiqa uslubiga xos so‘z (atama)larni toping.
3. Quyidagi nota misolining o‘lchovini aniqlang.

4. “Ey nozanin” ashulasining doira usulini aniqlang.

4-Mavzu. FARG‘ONA – TOSHKENT MUSIQA USLUBI HAQIDA TUSHUNCHA

Farg‘ona – Toshkent musiqa uslubi – Farg‘ona vodiysi, Toshkent shahri va viloyati hududlarida qaror topgan musiqiy an’analar majmuidir. Bunda xalq musiqasiga oid kuy, terma, lapar, yalla, qo‘shiq, ashula kabi aytim janrlari, shuningdek, dostonchilik, ashulachilik, maqomchilik kabi kasbiy musiqa an’analari o‘z aksini topgan.

Farg‘ona – Toshkent musiqa uslubida bolalar folklori, xotin- qizlarning qo‘shiqchilik ijodi, yallachilik, ashulachilik va cholg‘u kuylari munosib o‘rin tutadi. Jumladan, mazkur uslubdagi bolalar folklori bo‘lgan “Boychechak”, “Yomg‘ir yog‘aloq”, “Laylak keldi”, “Oftob chiqdi”, “Chuchvara qaynaydi”, “Chittigul” kabi qo‘shiqlar nafaqat shu sarhadda, balki butun diyorimiz bo‘ylab mashhurdir.

Xotin-qizlar davrasida lapar-u yallalar, to‘y marosimi qo‘shiqlari bo‘lgan “Yor-yor”, “Kelinsalom” va boshqa qo‘shiq namunalari sevib aytiladi.

Farg‘ona – Toshkent musiqa uslubida “katta ashula” deb nom olgan ashula yo‘li ham bo‘lib, u, odatda, turli ommaviy yig‘in va tantanalarda, bayram marosimlari, gap-gashtaklarda hamda an’anaviy choyxona majlislarida hofizlar tomonidan ijro etilgan.

Z. Islomshikov. Shohimardon.

Farg‘ona – Toshkent cholg‘u musiqasida raqs kuylari ham mashhurdir. Bu o‘rinda, jumladan, “Dilxiroj”, “Andijon polkasi”, “Farg‘onacha rez”, “Tanavor”, “Katta o‘yin” kabi raqs kuylarini aytish mumkin.

XALQ ASHULALARI

Farg‘ona – Toshkent musiqa uslubida xalq ashulalari muhim o‘rin tutadi. Bu ashulalar terma, lapar, qo‘shiq singari aytimlarga nisbatan ovoz doirasining kengligi hamda kuychan, so‘lim ohanglari bilan ajralib turadi. Xalq ashulalari barmoq vaznida bo‘lgan xalq she’rlari yoki aruz vaznidagi mumtoz she’riyat asosida aytiladi.

“Tanavor”, “Ey nozanin”, “Oydek to‘libdur”, “Farzona”, “Ul parivash” singari xalq ashulalari nafaqat hofiz-ashulachilar, balki ziyolilar, hunarmandlar, kosiblar va boshqa kasb egalari tomonidan ham ijro etib kelinadi. Shuningdek, bu turdagi ashulalar xotin-qizlar tomonidan ham “ichkarida” kuylangan. Jumladan, “Chaman ichra”, “Tanavor”ning “Qora sochim” kabi ashula yo‘llari dutor jo‘rligida xotin-qizlar tomonidan sevib ijro etiladi.

Ashulalar, an’anaga ko‘ra, turli yig‘in va majlislarda, to‘y marosimlari va boshqa xalq tantanalarida ijro etilgan.

Choyxonalarda esa ashulachilarning ijodiy musobaqalari ham o‘tkazib turilgan.

Taniqli ashula ijrochilari qatorida Mamadbobo Sattorov, Boltaboy Rajabov, Erkaqori Karimov, Ortiqxo‘ja Imomxo‘jayev, Rasulqori Mamadaliyev, Jo‘raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov, Mukarrama Azizova, Zaynab Polvonova, Murodjon Ahmedov, Tavakkal Qodirov, Fattohxon Mamadaliyev, Orifxon Hotamov kabi mashhur san’atkorlar nomini hurmat bilan tilga olamiz.

TANAVOR I

Xalq ashulasi



TOSHKENT SHAHRIM

Po‘lat Mo‘min she’ri *Nadim Norxo‘jayev* musiqasi

O‘rtacha





Olinsa ham noming toshdan,
Mehring sening nur —
quyoshdan.
Salobatli qaddu basting,
Qardoshlikdan kulgan baxting.

Toshkent shahrim,
toshqin shahrim,
O‘zingdirsan yurak-bag‘rim.

Chaman nusxa yasangansan,
Saodatdan yashargansan.
Yulduz kabi charaqlaysan,
Baxtim bo‘lib yaraqlaysan.

Toshkent shahrim,
toshqin shahrim,
O‘zingdirsan yurak-bag‘rim.

Dong yoygansan tarixlarda,
Nomdorimsan ta’riflarda.
Paxtakorga shon shahrimsan,
Mehmondo‘stim, non shahrimsan.

Toshkent shahrim, toshqin shahrim,
O‘zingdirsan yurak-bag‘rim.

?! 1. “Tanavor” ashulasi qanday cholg‘ular jo‘rligida ijro etiladi?
2. Farg‘ona – Toshkent musiqa uslubida mashhur ashulachilarning nomlarini ayting.
3. “Toshkent shahrim” qo‘shig‘ining she’rini yod oling.

5-Mavzu. KATTA ASHULA VA YALLACHILIK SAN’ATI

Katta ashula Farg‘ona – Toshkent musiqa uslubining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Chunki, kasbiy musiqaga oid bu ashula janri boshqa mahalliy uslublarda uchramaydi.

Katta ashula – yirik hajmli va kuy-ohanglari keng nafasga mo‘ljallangan ashula bo‘lib, u yakka hofiz – ashulachi yoki 2-4 hamnafas hofizlar tomonidan aytiladi. Bunda jo‘rnavoz cholg‘ular qo‘llanilmaydi. Katta ashulalarning nazmiy asoslarini aruz vaznida bo‘lgan diniy-falsafiy, ishqiy-muhabbat, pand-nasihat kabi mavzulardagi she’riyat (Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Muqimiy, Furqat, Miskin, Habibiy va boshqalarning) namunalari tashkil etadi. Bu turdagi ashulalar rivo

YALLAMA-YORIM

O‘rtacha *O‘zbek xalq yallasi*

Patnisaki ashulalar haqidagi taassurotlarni boyitish. Katta ashula janri Farg‘ona — Toshkent maqom yo‘llariga, ayniqsa ashula yo‘llarining avjlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Qolaversa, bunday ta’sirlanish jarayonida har ikkala janr (katta ashula+maqom) xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan yovvoyi maqom janri ham yuzaga kelgan edi. Bunda Farg‘ona-Toshkent maqom ashula namunalarini jo‘rnavoz cholg‘ularsiz, katta ashulaga monand erkin uslubda aytilishi ko‘zda tutiladi. Binobarin, “yovvoyi maqom” iborasi “usulsiz maqom” ma’nosida ham ishlatiladi. Shunga ko‘ra, masalan, “Ushshoq” ashula yo‘lining usulsiz (katta ashula uslubida)

ijro etilishi “Yovvoyi Ushshoq”, shuningdek “Chorgoh” yo‘li – “Yovvoyi Chorgoh” kabi ataladi. Ba’zan “Yovvoyi” so‘zi o‘rnida “Patnisaki maqom” tushunchasi ham ishlatiladi, ya’ni “Patnisaki Chorgoh”, “Patnisaki Bayot” singari. Bu borada “patnis” so‘zining qo‘llanilishi ham katta ashula uslubidagi ijroga ishoradir. “Yovvoyi maqom”larda Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Muqimiy, Furqat, Miskin, Habibiy va boshqa mumtoz shoirlarning aruz vaznli she’riyat namunalari qo‘llaniladi.

?! 1. Katta ashula nomlarini aniqlang:
Yovvoyi Chorgoh, Ey dilbari janonim, Bir kelsun, Guli surx, Zirafkand, Guluzorim, Savti Chorgoh.
2. Yallachilik san’atida qanday aytimlar kuylanadi?
3. Katta ashula qaysi musiqiy uslubga xos?
4. “Toshkent shahrim” qo‘shig‘ining ohang – pardalarida mavjud yarim ton va butun Ston oraliq tovushlar qanday aniqlanadi?
5. Qo‘shiqning naqaroti va uch band she’rini yod oling.
6. Quyidagi nota cho‘zimlarining o‘lchov sanog‘ini aniqlang hamda ularni chapak vositasida (hisobga mutanosib) ifoda eting:

7. Quyidagi kataklarda joylashgan harflarni o‘zaro birlashtirish orqali atamalarni toping.

S	A	M	A	R	Q	A	N	D
S	S	O	Z	D	O‘	M	B	I
I	D	N	A	Y	A	N	A	R
B	A	Q	O	R	Q	A	Y	Y
I	D	O	S	T	O	N	K	U
Z	Q	A	R	S	A	K	S	A
I	O‘	Y	I	N	R	A	Q	R
Q	Q	O‘	SH	I	Q	D	O	I

6-Mavzu. XORAZM MUSIQA USLUBI HAQIDA TUSHUNCHA

Xorazm musiqa uslubi — mazkur vohadagi xalq qo‘shiq va laparlari, turli marosim, tomosha va o‘yin-raqs kuylari hamda dostonchilik, ashulachilik va maqom san’ati kabi kasbiy musiqa an’analaridan tashkil topgan. O‘zbek musiqasining tarkibiy qismi bo‘lgan Xorazm musiqasi, ayni vaqtda, o‘zgacha tarovatga ega bo‘lib, uning ma’lum darajada turkman va ozarbayjon musiqasiga yaqin jihatlari ham bordir.

Xorazm musiqa uslubining o‘ziga xosligi uning an’anaviy cholg‘ularida ham namoyon bo‘ladi. Masalan, bulamon damli — puflama cholg‘usi bu uslubda keng qo‘llaniladi. U boshqa mahalliy uslublar uchun xos emas. Bulamon — tut daraxtidan ishlangan kichik surnay shaklidagi cholg‘u bo‘lib, unda yakka holda va ansambl tarkibida ijro etish mumkin.

Xorazmda Kavkazning mashhur tor cholg‘usi ham keng tarqalgan. XIX asr oxiridan boshlab esa, “garmon” cholg‘usi ham qo‘llana boshlangan. Uni “soz” deb atashadi. Bulardan tashqari, Xorazm musiqa amaliyotida deyarli barcha o‘zbek xalq cholg‘ulari (dutor, tanbur, g‘ijjak, nay, qo‘shnay va boshqalar) qo‘llangani holda do‘mbira sozi kam uchraydi.

Xorazm musiqa uslubida raqs va umuman, o‘yin harakatlari bilan bog‘liq cholg‘u kuylari salmoqli o‘rin tutadi. Raqs-o‘yin kuylarini bir necha turlarga bo‘lish mumkin:

1. Xalq orasida ommalashgan raqslar. Ularning asoslarini “Lazgi”, “Ganji Qorabog‘”, “Ufori” kabi kuylar tashkil etadi.

2. Dorbozlarning o‘yin-kuylari. Ularni “Yelpazalandi”, “Ufori Yelpazalandi” kabi kuylar tashkil etadi.

3. Qiziqchi va masxarabozlarning o‘yin-kuylari. Bu kuylarni “Chog‘olloq”, “Az-az”, “Az-azning tezi”, “Xorazmcha”, “Yuz bir”, “Ot eroni”, “Surnay yo‘li” kabi namunalar tashkil etadi.

Xorazm raqs va o‘yin kuylari ommaviy bayram, sayillarda ijro etiladi. O‘tmishda esa Xiva xonligida o‘tkazilgan Xalq sayli kunlari “Xatarli o‘yin” nomli turkum mazmunida ham namoyish etilgan. “Xatarli o‘yin”da parrandalar va uy hayvonlarining xatti-harakatlari (masalan, “Ot o‘yin”, “Tustovuq o‘yin”, “Kaptar” va b.) hamda “Olma terish”, “Kampir”, “Ko‘knori” kabi maishiy sahnalar musiqa jo‘rligida komik harakatlar vositasida aks ettirilgan.

XORAZM LAZGISI

Xalq kuyi

SHODIYONA

Nurmuhammad Isroilov she'ri — *Xurshida Hasanova* musiqasi

di - yo - na, Se- vin-chi -miz, dos - ton - dir,
Tin - chi - miz hur, za - mon - dir,
shod-li - gi - miz dos - ton- dir, Tin -chi -miz hur
8
za -mod - dir
Hey! O‘ - g‘il qiz - lar
o‘y - nang sho‘x, kuy -lang sho‘x
Dil- da g‘am -ga o‘ - rin yo‘q, Hus - ni a’ - lo
gul di - yor, Bax-ting kuy -lab qo‘l - da tor,
4
Bax- ting kuy -lab qo‘l -da tor.
Dil - da shod - lik, til - da qo‘- shiq

kuy -lay-miz yo - na, yo - na, Bay- ra- mo-na
ku - yi - miz, Yur - tim - da sho-
di - yo - na, Se- vin-chi-miz, dos - ton - dir,
Tin - chi - miz hur, za - mon - dir,
shod-li - gi - miz dos - ton - dir, Tin -chi -miz hur
za - mon - dir. Hey!
Zar - qu - yosh - ga teng biz - ning
bo‘ -yi - miz. Yurt-da bu -kun
to - yi - miz, Do - im se - vinch
kuch - ga to‘l. Ti - la - gi- miz o - mon bo‘l,

N a q a r o t:

Dilda shodlik, tilda qo‘shiq,
Kuylaymiz yona-yona,
Bayramona kuyimiz,
Yurtimda shodiyona.
Sevinchimiz dostondir,
Tinchligimiz — hur zamondir.
Shodligimiz dostondir,
Tinchligimiz — hur zamondir.

1. Hey!
O‘g‘il-qizlar o‘ynang
sho‘x kuylang sho‘x,
Dilda g‘amga o‘rin yo‘q,
Husni a’lo gul diyor,
Baxting kuylab qo‘lda tor!

2. Hey!
Zar quyoshga teng bizning bo‘yimiz,
Yurtda bu kun to‘yimiz,
Doim sevinch kuchga to‘l,
Tilagimiz omon bo‘l
Ona vatan omon bo‘l!

?! 1. Qanday raqs kuylarini bilasiz? Nomlarini ayting.
2. “Shodiyona” qo‘shig‘ining kuy-ohanglarida qo‘llangan intervallarni aniqlang.
3. “Sol” notasidan yuqoriga qarab major tovushqatorini tuzing.

7-Mavzu. XORAZM DOSTONCHILIK AN’ANALARI

Bola baxshi Abdullayev

Xorazm dostonchilik maktabi o‘z an’analariga ega bo‘lib, u boshqa mahalliy dostonchilik maktablaridan (masalan, Surxondaryo – Qashqadaryo dostonchilik an’analaridan) farqli jihatlarga ega. Bu farqlar, asosan, quyidagilardan iborat:

a) Xorazm dostonlari (ichki) “bo‘g‘iq ovoz”da emas, balki “ochiq ovoz” uslubida kuychan xususiyatlar bilan aytiladi.

b) Ko‘pgina mahalliy dostonchilik maktablarida do‘mbira sozi jo‘rnavoz sifatida qo‘llansa, Xorazm dostonchiligida dutordan foydalaniladi. Shuningdek, doston aytimida ijrochilar ansambli qatnashadi. Bunda ustoz-baxshi dutor, tor yoki rubobda, qolganlari esa g‘ijjak, bulamon va ba’zan doira sozlarida jo‘r bo‘lib turishadi.

d) Xorazm dostonlari repertuarini, asosan, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Go‘ro‘g‘li”, “Kuntug‘mish”, “Bozirgon”, “Oshiq Oydin” kabi dostonlar tashkil etadi. Biroq Xorazm dostonchiligida qahramonlik dostoniga mansub “Alpomish” namunasi uchramaydi.

Xorazm dostonchiligining yirik vakillari qatorida Ahmad baxshi, Bola baxshi, Ro‘zimbek Murodov, Qalandar baxshilar nomini aytish kerak.

Xorazm musiqa uslubi doirasida dostonlarni garmonda (sozda) ijro etish an'anasi ham bo'lib, bunda dostonlar bir butun yaxlit shaklda emas, balki undan olingan parchalar va termalar aytiladi.

Xorazmda bu turdagi ijrochilarni sozchi, ya'ni Qurbon sozchi, Qodir sozchi deb ataydilar. Shuningdek, san'atkor ayollar — xalfalar tomonidan ham dostonlarning ayrim qo'shiqnomalari shu tarzda aytiladi.

"Go'ro'g'li" dostonidan "Ovozing seni" aytimini tinglang.

OVOZING SENI

Shoshmasdan



O‘g‘lim ketib sulton boshim xor o‘ldi,
O‘g‘limni ko‘rmakka ko‘nglim zor o‘ldi,
Yig‘lamoqdin ikki ko‘zim ko‘r bo‘ldi,
O‘g‘lima o‘xshaydi ovozing seni,
Bolama o‘xshaydi nolishing seni.

△ ONA TILIM – O‘ZBEK TILIM

Po‘lat Mo‘min she’ri *Farhod Alimov* musiqasi

O‘rtacha sur’atda



Ya- go- na- san Va- tan mi- sol,
Sen-dan top-dim bax-tu iq- bol,
Mak-ta-bing-da ol- dim ta'-lim, mak-ta-bing-da
ol-dim ta'-lim o - na ti- lim o - na ti - lim
o - na ti-lim o - na ti - lim
Na- vo- iy- dan me- ro- sim- san,
ja- rang-la-gan o-vo - zim- san,
Yu-ra— gim-da zav-qim lim-lim,
O- na ti-lim — o'z-bek ti-lim

Yas -sa-viy-ning xi-to – bi-san, Qo-di – riy- lar
ki- to- bi-san, ey o‘-zim-ning mus-ta- qi-lim,
o- na ti-lim – o- na ti- lim.
O- na ti- lim – o- na ti- lim.
Sen-dan a- yon o‘z- bek- li- gim yax-shi-lar-ga
ko‘z-dek - li- gim, ber-ding o-dob, ber-ding bi-lim
O‘z-bek ti-lim o-na ti- lim
O‘z-bek ti- lim o - na ti - lim.

Tilim chiqqan so‘zing bilan,
Dilim ravshan o‘zing bilan.
Faxr etadur xalqim-elim,
O‘zbek tilim – ona tilim.

Yagonasan Vatan misol,
Sendan topdim baxt-u iqbol.
Maktabingda oldim ta’lim,
Ona tilim – ona tilim.

Juda qadim – sharqonasan,
Asli zoti turkonasan.
Sen tufayli to‘ldi aqlim,
Ona tilim – ona tilim.

Navoiydan merosimsan,
Jaranglagan ovozimsan.
Yuragimda zavqim lim-lim,
O‘zbek tilim – ona tilim.

Yassaviyning xitobisan,
Qodiriylar kitobisan.
Ey o‘zimning mustaqilim,
Ona tilim – ona tilim.

Sendan ayon o‘zbekligim,
Yaxshilarga ko‘zdekligim.
Berding odob, berding bilim,
O‘zbek tilim – ona tilim.

Farg‘ona – Toshkent musiqa uslubidan Xorazm musiqa ijro uslubini farqlash.

Farg‘ona – Toshkent musiqa amaliyotida deyarli barcha xalq cholg‘ulari, jumladan, dutor, tanbur, rubob, chang, sato, g‘ijjak, nay, qo‘shnay, surnay, karnay, doira, nog‘ora va boshqa sozlarni ko‘rish mumkin. Bu sozlar vaziyatga qarab, yakka yoki ansambl shaklida namoyon bo‘ladi. Xususan, ommaviy bayram, xalq tantanalari va to‘y marosimlarida surnay, karnay, nog‘ora va doiralardan iborat asnambl sadolari yangrasa, uy-xona sharoitlarida esa sadolanishi nisbatan yumshoq cholg‘ular – dutor, tanbur, g‘ijjak, qo‘shnay va boshqalar qo‘llaniladi. Ashula aytuvchi hofizlar ko‘pincha dutor va tanbur jo‘rnavozligini qo‘llaydilar.

Xorazm musiqa uslubida ham shu kabi cholg‘ular bilan birga yana bulamon, garmon va kavkaz tori keng qo‘llaniladi. Jumladan, xalfalarning turli aytimlariga garmon cholg‘usi jo‘rnavoz sifatida qo‘llaniladi. Tor cholg‘usi esa maqom, suvora va doston ijrochiligida jo‘rnavoz cholg‘ular orasida yetakchi o‘rinda turadi. Shu bilan birga bulamon, garmon va tor sozlari turli ansambllar tarkibida ham qo‘llaniladi.

8-Mavzu. XORAZM ASHULACHILIK SAN’ATI

Xorazmda ashulachilik san’ati ravnaq topgan bo‘lib, ashulachilarni xalq orasida ko‘proq “go‘yanda” deb ataydilar. Ashula janrining muhim jihatlari shundan iboratki, u, asosan, mumtoz

Madrahim Sheroziy

she'riyat namunalariga asoslanadi. Kuy-ohanglari esa qo'shiq va laparlarga nisbatan keng rivojlangan bo'lib, ovoz ko'lami (diapazoni) bir oktava va undan ortiq bo'ladi.

Xorazmda "Suvora" nomi bilan ma'lum va mashhur ashula turkumlari mavjud. "Suvora" so'zi fors-tojikcha bo'lib, otliq ma'nosini bildiradi. Ustozlar "Suvora" ashula yo'llarini "ot tuyog'idan hosil bo'ladigan turli ritmik tuzilmadagi usullar va ularga asoslangan kuylar"ni ifodalaydi, deb ta'kidlaydilar.

Xorazm "Suvora"lari Navoiy, Mashrab, Nodira, Ogahiy, Munis, Avaz O'tar, Bedil kabi shoirlarning she'rlari asosida aytiladi.

Xorazmda "Suvora" ijrochilarining didalishma yoki diydalashma deb yuritiladigan o'ziga xos musobaqalari o't-kazib turiladi. Bunday musobaqada qatnashayotgan bir necha ashulachining har biri dastlabki (birinchi) ashulachi taklif etgan ashula kuyi asosiga yangi she'rlar bog'lab, navbatma-navbat kuylaydilar. Bu ijodiy vazifani yuqori mahorat bilan bajargan ashulachi didalishma musobaqasida g'olib bo'lib chiqadi.

"Suvora"larning mashhur ijrochilari qatorida Hojixon Boltayev, Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Komiljon Otaniyozov, Otajon Xudoyshukurov kabi ijrochilarning nomlari alohida hurmat bilan tilga olinadi.

Xorazmda "Suvora" ashula yo'llarining ikki turkumi mashhur bo'lib, ular quyidagicha nomlar bilan ataladi:

1. O'n ikki Suvoradan iborat S a v t i S u v o r a l a r turkumi. Bu turkumdagi har bir "Suvora" rim raqami bilan belgilanadi. Masalan, Savti Suvora I, Savti Suvora II, Savti Suvora III, Savti Suvora IV, Savti Suvora V va hokazo. Mazkur turkumdagi barcha Suvoralar 6/8 o'lchov vaznidagi doira usullari bilan ijro etiladi.

2. Suvoralarning yana bir turkumini y i r i k s h a k l l i S u v o r a lar majmuasi tashkil etadi. Bu Suvoralar turkumidagi har bir Suvoralarning maxsus nomi bo'lib, ular Suvora, Chapandozi Suvora, Yakparda Suvora, Xushparda Suvora,

Kajhang Suvora kabi ataladi. Bu Suvoralarda 6/8, 3/4, 3/8 ritm o‘lchovlari va ularga muvofiq doira usullari qo‘llaniladi.

“Savti Suvora” I ni tinglang.

“Qalabandi” kuyini notalar asosida (vazmin sur’atda) kuylang.

QALABANDI

O‘rtacha tez *O‘zbek xalq kuyi*

?! 1. Farg‘ona – Toshkent musiqa uslubi haqida nimalarni bilasiz?
2. Katta ashula haqida umumiy tushunchangiz.
3. Xorazm musiqa uslubi haqida tushuncha bering.
4. Xorazm xalq raqslarining nomlari qanday?
5. Xorazm dostonchilik maktabining o‘ziga xos jihatlarini tavsiflang.
6. Farg‘ona – Toshkent cholg‘u musiqasi haqida nimalarni bilasiz?

II CHORAK

MAQOMLAR HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

1-Mavzu. MAQOM TUSHUNCHASI SHASHMAQOM

Maqom san'ati o'zining ko'p asrlik tarixiga ega. Bu turdagi musiqiy san'at avloddan avlodga "ustoz-shogird" an'anasi orqali meros bo'lib o'tib kelgan kasbiy musiqaning (shuningdek, ustozona musiqaning) yuksak namunalaridir. Kasbiy musiqaning ilk shakllanishida esa dastlab "saroy madaniyati" muhim o'rin tutgan edi. Chunki, dastlabki davrlarda xalq orasidan yetishib chiqqan iste'dodli musiqachilar xon saroylariga (yoki amaldorlar xonadonida) musiqachi bo'lib xizmat qilish uchun jalb etilganlar. Xuddi ana shunday vaziyat va shart-sharoitlar yuzaga kelgan davrlardan boshlab kasbiy musiqa qaror topa boshlagan. Demak, o'tmishda maqom san'ati bilan asosan kasbiy musiqachilar (bastakor, kasbiy sozanda cholg'uchi, kasbiy xonandalar) maxsus shug'ullanib hayot kechirganlar.

"Maqom" atamasi asli arabcha bo'lib, ko'p ma'nolarni, shu jumladan, "o'rin", "joy", "daraja", "martaba", "manzilgoh" kabi tushunchalarni ifodalaydi. Musiqada esa dastlab "cholg'u asboblarida tovush hosil etiladigan joy"[1] (I.Rajabov), ya'ni parda ma'nosiga bog'liqdir.Yana boshqa ko'pgina mazmun jihatlari ham aynan shu pardalarga bevosita bog'lanadi: maqom – bu mukammal pardalar uyushmasi va doira usullari mushtarakligida ijod etilgan cholg'u kuy va ashulalar turkumidir.

Hozir O'zbekistonda maqomlarning uch asosiy turi mavjud bo'lib, ular quyidagicha nomlanadi:

1. Shashmaqom.
2. Xorazm maqomlari.
3. Farg'ona – Toshkent maqom yo'llari.

Shashmaqom – bu Olti maqom degani bo'lib, u quyidagi maqomlardan tashkil topadi:

I. Buzruk – ma'nosi "katta", "ulug'", "buyuk".

II. Rost – ma'nosi "to'g'ri", "chin", "haqiqiy".

[1] Rajabov I. Maqomlar. – Toshkent, 2006. 63-bet.

III. Navo – ma'nosi "kuy", "mungli kuy".

IV. Dugoh – ma'nosi "ikki o'rin", "ikki joy", "ikki parda".

V. Segoh – ma'nosi "uch o'rin", "uch joy", "uch parda".

VI. Iroq – ma'nosi shu nomli arab mamlakatiga nisbat berilgan.

Shashmaqom XVIII asr o'rtalarida Buxoroda saroy kasbiy musiqachilari va musiqashunos olimlari tomonidan Olti maqomdan iborat turkum tarzida ifoda etilgan edi. Bunda olti xil mukammal parda-tuzuklar uyushmasi bosh omil sifatida olinib, ularning muayyan doira usullari bilan (birikuvi) birligi asosida ijod etilgan cholg'u kuy va aytim (ashula) yo'llari alohida-alohida turkumlarga birlashtirilgan. Demak, Shashmaqom, eng avvalo, oltita mukammal pardalar uyushmasini anglatar ekan. Maqom cholg'u kuy va aytim (ashula) turkumlari esa, ana shu mukammal pardalarning ma'lum doira usullari bilan mushtarakligi natijasida yuzaga keladi.

Shashmaqomdagi har bir maqom ikki yirik bo'limdan – cholg'u va aytim (ashula) yo'llari (turkumlari) dan iborat bo'lib, ularni "ustoz-shogird" an'anaviy maktabida tahsil ko'rgan malakali kasbiy cholg'uchi va ashulachi-hofizlargina mukammal ijro eta oladilar.

Maqomlarni besh chiziqli nota tizimi asosida yozib olish ishlari XX asr davomida bir necha bor amalga oshirildi. Xususan, taniqli kompozitor va etnograf V.A.Uspenskiy (1879-1949) XX asrning 20-yillarida Buxoroda maqomchi ustozlar hofiz Ota Jalol Nosirov va tanburchi Ota G'iyos Abdug'anilar ijrosida salobatli Olti maqom tizimini nota yozuvlarida ilk bor muhrlaydi. Shuningdek, akademik Yunus Rajabiy (1897 – 1976) ham Olti maqom tizimini ikki bor 50-yillar va 60 – 70-yillar davomida nota yozuvlari bilan bosmadan chiqardi.

Shashmaqomdan namunalar tinglang.

SAMOI DUGOH

△ “Savti Kalon Soqiynomasi” maqom aytimini uch bayt g‘azal asosida(matngaqarab) kuylang.

SAVTI KALON SOQIYNOMASI

“Rost” maqomidan

Bobur g‘azali

M.M. ♩ = 108



be- va- fo men-ga, Kel- sun, a-gar yu-zum-

Keltursa yuz baloni o‘shal bevafo menga,
Kelsun, agar yuzumni evursam balo menga.

Netgaymen ul rafiq bilakim qilur base,
Mehr-u vafo raqibg‘a, javr-u jafo menga.

Begona bo‘lsa aql meni telbadin ne tong,
Chun bo‘ldi ul parisifatim oshno menga.


S H A S H M A Q O M
(OLTI MAQOM)
1. BUZRUK MAQOMI
2. ROST MAQOMI
3. NAVO MAQOMI
4. DUGOH MAQOMI
5. SEGOH MAQOMI
6. IROQ MAQOMI

Shashmaqom turkumidagi har bir maqom ikki yirik bo‘-lim — mushkilot (cholg‘u) va nasr (ashula) bo‘limlaridan tashkil topishi haqidagi ma’lumotga egasiz. Qo‘shimcha sifatida yana quyidagilarni bilib olishingiz mumkin.

Maqomlarning aytim (ashula) bo‘limidan o‘rin olgan Saraxbor, Talqin, Nasr va Ufar nomli ashula yo‘llarini ijro etish har bir xonandadan aytim san’atining murakkab va mukammal namunalarini namoyon etishni talab etadi. Bunga erishish uchun esa musiqiy tahsilning “ustoz-shogird” an’anasi qo‘llanib kelingan. Ushbu an’anaga binoan, maqomchi ustoz o‘z san’atini o‘rgatish va shu tariqa meros qoldirish yo‘lida o‘ziga qobiliyatli shogird tanlagan. Shogird ustozning maqom ashulachiligi bobidagi mahoratini ko‘p yillar (7 — 10, hatto 10 — 15 yil.) davomida bosqichma-bosqich egallab borgan. Bu jarayonda nota yozuvlari kam ahamiyatli bo‘lib, shogirdlar ustozlarining namunaviy ijrolarini asosan “tinglab, idrok etish” bilan xotiralariga muhrlaganlar va maxsus mashqlar orqali ularni amaliy o‘zlashtirib borganlar. Shuningdek, maqom ashulalarida qo‘llangan aruz vaznidagi ko‘plab she’riyat (Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy, Hofiz, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bobur, Mashrab va boshqalar ijodi) namunalarini yod olishlari lozim edi. Bundan tashqari, jo‘rnavoz sozlar qatorida doira usullarini hamda tanbur va dutor ijrochiligini zaruriy darajada o‘zlashtirganlar.

?! 1. Shashmaqom tarkibidagi Olti maqom qanday nomlanadi?
2. “Savti Kalon” ashulasini yod oling.
3. O‘zbekistonda nechta asosiy maqom turi bor?
4. “Samoi Dugoh” kuyini nota asosida kuylang.

2-3-Mavzu. SHASHMAQOMNING CHOLG‘U (MUSHKILOT) VA ASHULA (NASR) BO‘LIMI

Olti maqom tizimidagi har bir maqom ikki yirik bo‘lim — cholg‘u va aytim (ashula) yo‘llaridan tarkib topishi aytilgan edi. Maqomlarning cholg‘u kuylar bo‘limi Buxoro an’anasiga ko‘ra “Mushkilot” deb yuritiladi. “Mushkilot” bo‘limi besh asosiy qismdan iborat bo‘lib, ular quyidagicha nomlanadi:

1. Tasnif — tasnif etilgan, ijod etilgan, mukammal asar.

2. Tarji – qaytariq, takrorlash, takrorlanuvchi.
3. Gardun – falak gardishi, qismat.
4. Muxammas – beshlik, beshlangan.
5. Saqil – vazmin, og‘ir.

Shuni aytish kerakki, garchand maqom cholg‘u kuylarining nomlari serjihat ma’nolar kasb etsa-da, ammo ularning deyarli barchasi maqom “matnida”, eng avvalo, doira usullari mazmunida qo‘llaniladi. Binobarin, “Gardun”, “Muxammas” yoki “Saqil” deyilganda, birinchi navbatda, ma’lum doira usullari nazarda tutiladi.

Maqomlarning “Mushkilot” cholg‘u bo‘limlari “Tasnif” nomli kuylar bilan boshlanadi. Bu atama “Olti maqom”ning har biriga qo‘shib aytiladi: “Tasnifi Buzruk”, “Tasnifi Rost”, “Tasnifi Navo”, “Tasnifi Dugoh”, “Tasnifi Segoh” va “Tasnifi Iroq”. Tasniflarda, odatda, 2/4 o‘lchov-ritmida bo‘lgan doira usuli qo‘llaniladi. Ustozlar an’anasida bu usul “bak-bak, bum-bum, bak-ist, bum-ist”, deb ifoda etiladi. Bir chiziqli nota yozuvida esa quyidagicha aks etadi:



Tasnif cholg‘u kuylarining shakl topishida “xona” va “bozgo‘y” nomli kuy tuzilmalari muhim o‘rin tutadi. “Xona” (*fors. toj.* – uy) o‘zgaruvchan kuy tuzilmasi bo‘lib, u asar davomida bir necha bor takrorlanadi va galdan galga parda tovushlari ortib, ovoz hajmi ham kengayadi. Shu tariqa xona kuyning avji sari intilib, taraqqiy etadi va avj holatiga yetishadi. Bozgo‘y kuy tuzilmasi esa, “xona”dan farqli o‘laroq, doimiy barqarorlikka ega. Zero, u asarning boshidan oxiriga qadar o‘zining dastlabki ohang tuzilish qiyofasini muqim saqlaydi. Bu o‘rinda “bozgo‘y” tuzilmasi o‘zining o‘zgarmas takrori bilan qo‘shiq-yallalardagi naqarot xususiyatini yodga soladi.

Maqom cholg‘u kuylarini ijro etishning ikki asosiy ko‘rinishi yakkanavoz (yakka sozda) va ansambl (dasta) shakllari yuzaga kelgan. Tanbur torli-chertma sozi yetakchi cholg‘u sifatida kasbiy musiqachilar orasida keng qo‘llaniladi. Doira esa zarb usullarini sadolantirish bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, maqom cholg‘u kuylarini g‘ijjak, dutor, nay, rubob, qo‘shnay kabi cholg‘ularda ham yakka holda ijro etish mumkin. Ansambl

ijrochiligi tarkibida esa tanbur va doira qatoriga yana dutor, nay, qo‘shnay, g‘ijjak yoki sato (yoki qo‘biz), chang, qonun, ud, rubob kabi cholg‘ular qo‘shilishi mumkin. Buxoro musiqa amaliyotida tanbur, nay va doira sozlaridan iborat cholg‘u ansambli an’anaviy tus olgan.

TASNIFI BUZRUK

M.M. ♩ = 84-88 *“Buzruk”* maqomidan

Shashmaqom an’anasiga ko‘ra, dastavval, cholg‘u bo‘limi “Mushkilot” kuylari (“Tasnif”, “Tarji”, “Gardun” va h.k.) birin-ketin beto‘xtov ijro etilib, yaxlit turkumni tashkil etadi. Bunda doira usullari qismdan qismga qarab murakkablashib boradi. Cholg‘u bo‘limining so‘nggi “Saqil” nomli kuyi ijro etilgach, maqomning aytim (ashula) bo‘limiga o‘tiladi.

Maqomlarning aytim (ashula) bo‘limi umumiy nom bilan “Nasr” deb ataladi. Nasr arabcha “ko‘mak”, “zafar” demakdir. Shashmaqomning “Nasr” nomli aytim yo‘llari ikki guruhdan iborat ashula turkumlariga bo‘linadi. Birinchi guruhning tarkibi, odatda, “Saraxbor”, “Talqin”, “Nasr” deb

nomlanuvchi asosiy aytim yo‘llari hamda ularning Taronalari va yakuniy Ufar ashula qismlaridan tashkil topadi.

Ikkinchi guruh aytimlari Savt, Mo‘g‘ulcha ashula yo‘llari va ularning Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufar nomli shoxobchalaridan iboratdir. Shunday qilib, Shashmaqom turkumi olti maqomni o‘z ichiga oladi. Olti maqomning har biri esa cholg‘u va ashula yo‘llaridan iborat ekan.

“Nasrulloiy” maqom aytim yo‘lini tinglang.

NASRULLOIY

Navoiy g‘azali — *“Buzruk”* maqomidan

M.M.=♩ 84-88



U f a r. Ufar—raqsbop doira usullaridan bo‘lib, ikki asosiy ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: 1. Yengil Ufar.

2. Og‘ir Ufar. Yengil Ufar, odatda, 6/8 ritm o‘lchovida bo‘ladi. Bunga Samarqand Ufaridagi usul misol bo‘la oladi:



Og‘ir Ufar 3/4 ritm o‘lchovida bo‘lib, u quyidagi ko‘rinishga ega:




SHASHMAQOMNING MUSHKILOT
(CHOLG‘U KUYLAR) BO‘LIMI
1. TASNIF
2. TARJE
3. GARDUN
4. MUXAMMAS
5. SAQIL


SHASHMAQOMNING NASR
(ASHULA) BO‘LIMI
BIRINCHI GURUH
AYTIMLARI
IKKINCHI GURUH
AYTIMLARI
1. SARAXBOR
Tarona
2. TALQIN
Tarona
3. NASR
4. UFAR
1. SAVT/ MO‘G‘ULCHA
2. TALQINCHA
3. QASHQARCHA
4. SOQIYNOMA
5. UFAR

OTA JALOL NOSIROV

Buxoro maqomlarining taniqli va mashhur ijrochilari qatorida Ota Jalol Nosirov, Ota G‘iyos Abdug‘ani, Domla Halim Ibodov, Hoji Abdulaziz Rasulov, Levi Boboxonov va boshqalarning nomlarini alohida aytib o‘tish kerak.

Ota Jalol Nosirov (1845 – 1928) Buxoro Olti maqomini juda yoshligidan o‘rgana boshlaydi. Dastlab uni bu san’at bilan onasi tanishtiradi. Keyinchalik esa mashhur hofiz va cholg‘uchi Tillaboy ustozligida puxta o‘zlashtiradi. XIX asrning 60-yillaridan to XX asrning dastlabki o‘n yilliklariga qadar Buxoro amirligi saroyida hofiz sifatida xizmat qiladi. Sho‘ro davriga kelib, Buxoroda ochilgan “Sharq musiqa maktabi” da ustozlik qiladi va ko‘plab shogirdlar yetishtiradi.

Ota Jalol Nosirov xalqimizning ulkan ma’naviy xazinasi bo‘lgan Olti maqomni mukammal bilgan va uni saqlab qolishda katta xizmat ko‘rsatgan san’atkordir. Ma’lumki, V.A.Uspenskiy 20-yillarning boshlarida salobatli Olti maqom turkumini Ota Jalol Nosirov va tanburchi Ota G‘iyos Abdug‘anilar ijrosida ilk bor nota yozuvlariga tushirgan edi. Shu tariqa maqomning umuman yo‘q bo‘lib ketishi xavfi bartaraf etiladi. Chunki, bu san’atning bilimdoni va amaliy ijrochisi bo‘lgan ustoz-sozanda va ustoz-hofizlar nihoyatda ozchilikni tashkil etardi.

?! 1. Shashmaqomning “Mushkilot” bo‘limida mavjud bo‘lgan beshta asosiy kuylar nomi qanday ataladi?
2. “Tasnif” doira usulini yod oling.
3. “Savti Kalon Soqiynomasi” aytimining uch bayt (6 misra) g‘azalini yod oling.
4. “Savti Kalon Soqiynomasi” doira usulini aniqlang.



5. Quyidagi usullarni “bum-bak” bo‘g‘inlari asosida ifodalang.



ATOQLI MAQOM IJROCHILARI

Ota Jalol Nosirov

Ota G‘iyos Abdug‘ani

Levi Boboxonov

Usta Shodi Azizov

Domla Halim Ibodov

Karim Mo'minov

4-Mavzu. XORAZM MAQOMLARI

Xorazm maqomlari muayyan tizimdagi turkum shaklida XIX asrning birinchi yarmida qaror topgan bo‘lib, bu turkum Buxoro maqomlari singari, asosan, Olti maqomdan iborat:

1. “Rost” maqomi (yoki Maqomi “Rost”);
2. “Buzruk” maqomi (yoki Maqomi “Buzruk”);
3. “Navo” maqomi (yoki Maqomi “Navo”);
4. “Dugoh” maqomi (yoki Maqomi “Dugoh”);
5. “Segoh” maqomi (yoki Maqomi “Segoh”);
6. “Iroq” maqomi (yoki Maqomi “Iroq”).

Komil Xorazmiy

Yozma manbalardan ma’lum bo‘lishicha, Xorazm maqomlarining uzil-kesil qaror topishida Buxoro maqomchilik an’analari katta ta’sir ko‘rsatgan. Bu o‘rinda atoqli musiqachi Niyozjon Xo‘janing xizmatlari alohida ko‘rsatib o‘tiladi. Shunga ko‘ra, Niyozjon Xo‘ja XIX asr boshlarida Buxoroga kelganligi va Olti maqom tizimini o‘rganib, so‘ngra bu san’atni Xorazm musiqachilariga o‘rgatganligi aytiladi. Ayni vaqtda, maqomlar Xorazm sharoitiga moslanib, mahalliy badiiy an’analar bilan bog‘liq jihatlarga ega bo‘lganligi ham ta’kidlanadi. XIX asrda yashab ijod etgan shoir va musiqashunos olim Pahlavon Niyoz Muhammad (taxallusi – Komil Xorazmiy, 1825 – 1897) o‘zi kashf etgan “Tanbur chizig‘i” nomli o‘ziga xos “nota yozuvi” vositasida Xorazm maqomlarini yozib olish tajribasini boshlab bergan edi. Bu ishni uning o‘g‘li – Muhammad Rasul Mirzaboshi davom ettirgan. O‘ng tomondan chapga qarab o‘qilgan mazkur “nota yozuvi”da tanbur pardalariga oid 18 ta muvoziy chiziqlar bo‘lgan va bunda sadolanishi (bosilishi) lozim bo‘lgan pardalar chiziqcha va nuqtalar asosida belgilangan.



Xorazm maqomlari tuzilishi jihatidan Buxoro maqomiga aksariyat o‘xshash hamda o‘zgacha holatlarni namoyon etadi. Xususan, bu maqomlarning cholg‘u-kuy yo‘llaridan tashkil topgan bo‘limi Shashmaqomdagi kabi “Mushkilot” deb emas, balki “Chertim yo‘li” yoki “Mansur” kabi umumiy nomlar bilan yuritiladi. Shuningdek, cholg‘u bo‘limi – chertim yo‘li tarkibida bizga Olti maqomdan ma’lum bo‘lgan “Tarje”, “Gardun”, “Muxammas” va “Saqil” nomli kuylari bo‘lgan holda, “Tasnif” atamasi uchramaydi va uning o‘rnida har bir maqomning nomi (masalan, “Maqomi Rost”, “Maqomi Buzruk” va h.k.) yoki “Tani maqom” iborasi qo‘llaniladi. Bundan tashqari, chertim yo‘li bo‘limlarida “Peshrav” va “Ufar” nomli qismlarning o‘rni muqim tus olganki, bu hol Olti maqomga xos emasdir. Ma’lumki, Olti maqom cholg‘u bo‘limlari “Saqil” nomli kuylar bilan yakunlanar edi. Xorazm maqomlarida esa bu o‘rinda “Ufar” nomli kuylar namoyon bo‘ladi. Bu kabi o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlarni yaxshi tasavvur etish maqsadida Shashmaqom va Xorazm maqomlarining “Rost” turkumidagi cholg‘u kuylarini bir-biriga qiyoslab ko‘rish mumkin:

Xorazm “Rost” maqomi
Chertim yo‘li:
1. Maqomi Rost.
2. Peshravi Gardun.
3. Muxammas I.
4. Muxammas II.
5. Muxammasi Ushshoq.
6. Saqili Vazmin.
7. Ufar.

Buxoro “Rost” maqomi
“Mushkilot” bo‘limi:
1. Tasnifi Rost.
2. Garduni Rost.
3. Muxammasi Rost.
4. Muxammasi Ushshoq.
5. Muxammasi Panjgoh.
6. Saqili Vazmin.
7. Saqili Rak-Rak.

Chertim yo‘li kuylarining ichki shakl-tuzilishlarida Olti maqomning “Mushkilot” kuylaridan ma’lum bo‘lgan “xona-bozgo‘y” nisbatlari namoyon bo‘ladi.

Xorazm maqomlarining cholg‘u kuylari ijro etilganda tanbur va doira sozlari muhim o‘rin tutadi. Tanburda maqomning kuyi, doirada esa usul yo‘li chertiladi. Shuningdek, chertim yo‘llari ikki tanbur, bir g‘ijjak, bir bulamon va doira cholg‘ularidan iborat.

⦿ *Xorazm maqomlari chertim yo‘llaridan namunalar tinglang.*

△

O‘ZBEKISTON

Muhiddin Omon she’ri — *Dilorom Omonullayeva* musiqasi



Chamanimsan, iforingga to‘yib bo‘lmas,
Diydoringni qiyomatga qo‘yib bo‘lmas,
Mingta jannat bog‘idan ham sen muqaddas,
O‘zbekiston — mangu so‘lmas bahorimsan,
O‘zbekiston — baxti kulgan diyorimsan!

5-Mavzu. XORAZM MAQOMLARINING AYTIM YO‘LI

Xorazm maqomlarining ashula bo‘limi “Aytim yo‘li” yoki “Manzum” deb ataladi. Xorazm aytim yo‘llarini Shashmaqom “Nasr” bo‘limlari bilan qiyoslaganda ko‘plab umumiy va o‘zgacha holatlar namoyon bo‘ladi. Masalan, Xorazm aytimlarida “Talqin”, “Nasr” va “Ufar”lar bilan birga mahalliy ashulachilik an’analariga aloqador “Suvora”,

Matyoqub Xarratov

Hojixon Boltayev

Matniyoz Yusupov va Matpano Ota Xudoyberganov

shuningdek, “Faryod” va “Naqsh” nomlari bilan ma’lum ashula namunalari keng o‘rin tutadi. Ammo, ayni vaqtda, “Saraxbor” atamasi umuman uchramaydi hamda uning o‘rniga (chertim yo‘lida bo‘lgani singari) maqomning nomi (Maqomi Rost, Maqomi Buzruk va h.k.) ishlatiladi. Misol tariqasida har ikkala turkumning “Navo” maqomlariga oid aytim (ashula) yo‘llarini qiyoslash mumkin:

Xorazm “Navo” maqomi	**Buxoro “Navo” maqomi**
Aytim yo‘li:	**Nasr bo‘limi:**
1. Maqomi Navo.	1. Saraxbori Navo.
2. Tarona.	2. Tarona I – II.
3. Suvora.	3. Talqini Bayot.
4. Talqin.	4. Tarona.
5. Faryod.	5. Nasri Bayot.
6. Naqsh.	6. Tarona I – II.
7. Oraz.	7. Orazi Navo.
8. Ufar.	8. Tarona I – III.
	9. Husayniy Navo.
	10. Ufari Bayot.

Xorazm va Buxoro maqomlarini qiyoslashda davom etib, yana shuni aytish mumkinki, Xorazm “Iroq” maqomida “aytim yo‘li”ga doir ashula namunalari umuman uchramaydi. (Bu namunalar bizgacha yetib kelmagan.) Demak, “Iroq” maqomi “chertim yo‘li”dan iborat, xolos. Shuningdek, Xorazm maqomlarida ikkinchi guruh ashula turkumlariga doir “Savt”, “Mo‘g‘ulcha” va ularning shoxobchalari muqim tarzda shakl topmagan.Xorazm maqomlarining aytim yo‘llari Navoiy, Fuzuliy, Mashrab, Ogahiy, Munis, Avaz O‘tar kabi mumtoz shoirlarning aruz vaznli nazmiy ijodlari asosida “o‘qiladi”.

Xorazm maqomlarining aytim yo‘lidan namunalar tinglang.

KOMILJON OTANIYOZOV HAQIDA

Xorazm maqomlarining mahoratli ijrochilari bir necha avloddan iborat. Jumladan, XIX asrda Komil Xorazmiy, XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida esa Komil Xorazmiyning shogirdlari Xudoybergan Muhrkan, Matyoqub pozachi, Abdullo gulobiy, Bobojon

bulomonchi, Muhammad Rasul Mirzo, Matyoqub Xarratov kabi maqomchi san'atkorlar faoliyat ko‘rsatganlar. Shuningdek, XX asr davomida Matpano Ota Xudoyberganov, Matyusuf Xarratov, Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Matniyoz Yusupov, Ro‘zimat Jumaniyozov va boshqa ustoz san'atkorlarning nomlari Xorazm maqomlarining yetuk ijrochilari qatorida tilga olinadi.

Komiljon Otaniyozov

Xususan, Komiljon Otaniyozov (1917 – 1975) mashhur xonanda, sozanda va bastakor bo‘lib, u Xorazm maqomlari aytim yo‘llarini Matpano Xudoyberganov, Madrahim Yoqubov va Hojixon Boltayevlardan o‘rgangan edi. Shu bilan birga u Xorazm dostonlari, qo‘shiqlari hamda "Suvora" larini mahorat bilan ijro etgan. Komiljon Otaniyozov bastakorlik bobida ham barakali ijod qilib, "Sallamno", "O‘ynar", "Ko‘ring", "Muborak", "Ayrilmasin nigoridan", "Bo‘libdur", "Netay" kabi xalq orasida keng tarqalgan ashula va qo‘shiqlarni ijod etdi.

?! 1. Xorazm maqomlari ijrosida qanday cholg‘ular muhim o‘rin tutadi?
2. Saqili rak-rak kuyi qaysi maqomga mansub?
3. Ushbu ufar usulining o‘lchovini aniqlang.



4. Quyidagi usullarni "bum-bak" bo‘g‘inlarida ifoda eting.



d)



e)



5. Xorazm maqomlarining cholg‘u yo‘llari (kuylar) qanday umumiy nomlar bilan yuritiladi?
6. Xorazm maqomlarining cholg‘u yo‘llari tarkibidan qanday kuylar o‘rin olgan?
7. “O‘zbekiston” qo‘shig‘ining she’rini yod oling.

6-Mavzu. FARG‘ONA – TOSHKENT MAQOM YO‘LLARI

Toshkent va Farg‘ona vodiysi shaharlari musiqiy amaliyotida joriy etilgan maqom yo‘llariga nisbatan “Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari” umumlashma iborasi qo‘llaniladi. Bu turdagi maqomlar Buxoro va Xorazm maqomlaridan farqli o‘laroq, yaxlit bir turkumni tashkil etmay, balki alohida-alohida bo‘lgan cholg‘u va ashula yo‘llaridan iborat. Xususan, “Nasrullo I – V”, “Munojot I – IV”, “Ajam Taronalari”, “Miskin I – V”, “Segoh I – III”, “Mushkiloti Segoh”, “Sayqal I – II”, “Mirzadavlat I – II”, “Mushkiloti Dugoh”, “Cho‘li Iroq” kabi cholg‘u kuylari hamda “Chorgoh I – V”, “Dugoh-Husayn I – VII”, “Bayot I – V”, “Bayoti Sheroziy I – V”, “Gulyor-Shaxnoz I – V”, “Ko‘cha Bog‘i I – II”, “Segoh”, “Toshkent Irog‘i” singari ashula yo‘llari shular jumlasidandir. Binobarin, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari tarkibida bir qismli namunalardan tortib, to besh-yetti qismdan iborat turkum asarlar namoyon bo‘ladi.

O‘tmishda Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari nafaqat xon saroylarida, balki xalq hayoti bilan bog‘liq turli sharoit va vaziyat (xalq tomosha va sayillari, dorbozlar o‘yini, to‘y bazmlari, ziyoli va kosib-hunarmandlar davrasida va h.k.) larda ham mudom ijro etib kelingan. Bu holat ularning xalq orasida mashhur bo‘lishi sabablaridan biridir.

“Farg‘ona-Toshkent maqom cholg‘u yo‘llari” xalqimizning sevimli kuylari bo‘lib, ularni “Nasrullo I—V”, “Munojot I—V”,

Abduqodir Ismoilov

“Ajam va uning taronalari”, “Miskin I—V”, “Segoh I—III”, “Mushkiloti Segoh”, “Sayqal I—II”, “Mirzadavlat I—II”, “Mushkiloti Dugoh”, “Cho‘li Iroq”, “Chorgoh”, “Surnay Irog‘i”, “Surnay Dugohi”, “Surnay Ushshog‘i” kabi kuylar tashkil etadi. Binobarin, bu maqom yo‘llarining tarkibini bir qismli kuy namunalaridan tortib to besh qismli turkum asarlar tashkil etadi. Turkumdagi tarkibiy qismlar rim raqamlari vositasida (“Miskin I”, “Miskin II”, “Miskin III” va h.k.) ajratiladi. Ba’zi turkumlarda maxsus nomlar ham uchraydi. Masalan, “Miskin I—V” cholg‘u turkumining III qismi “Adoiy”, IV qismi “Asiriy” deb atalsa, “Nasrullo I—V” ning II qismi “Chapandoz”, III qismi “Qashqarcha”, IV qismi “Tarona” va V qismi “Ufar” deb ataladi va h.k.

Farg‘ona-Toshkent maqom cholg‘u kuylarini turli xil xalq cholg‘ularida (nay, g‘ijjak, dutor, tanbur, surnay va b.) ijro etish an’anasi ham mavjud. Shuningdek, bu kuylar turli vaziyatlarda chalinadi. Masalan, surnay yo‘llari xalq tomosha va bayramlarida, dorbozlar o‘yini va to‘y bazmlarida, dutor, tanbur yoki g‘ijjak ijrolari “uy sharoitlari”da o‘tkaziladigan turli yig‘in va majlislarda namoyon bo‘ladi.

Farg‘ona-Toshkent maqom cholg‘u kuylarining ijrochilari, odatda, kasbiy musiqachilar bo‘lib, ular bu san’atni maqomchi ustozlardan o‘rganadilar. Shu tarzda bu san’atni bizga yetkazib bergan taniqli sozandalar qatorida Sultonxon Hakimov (tanbur), Abduqodir Ismoilov (nay), Ahmadjon Umurzoqov (qo‘shnay, surnay), Ashurali Yusupov (surnay), Shobarat tanburchi, Abdumutal Abdullayev (tanbur), Muhiddin Hoji Najmiddinov (dutor, tanbur), Abdusoat Vahobov (dutor), Komiljon Jabborov (g‘ijjak, dutor, tanbur), Maqsudxo‘ja Yusupov (tanbur), Saidjon Kalonov (nay), Faxriddin Sodiqov (chang, dutor), G‘anijon Toshmatov (g‘ijjak), Turg‘un Alimatov (tanbur, dutor, g‘ijjak), G‘ulomjon Hojiqulov (g‘ijjak) kabi mahoratli ijrochilar nomini alohida ta’kidlash kerak.

NASRULLO I

Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘li

Vazmin

Mulla To‘ychi Toshmuhammedov.

Farg‘ona – Toshkent maqom ashula yo‘llari (cholg‘u yo‘llari kabi) alohida bo‘lgan bir qismli (“Segoh”, “Toshkent Irog‘i” va b.q.) namunalardan tortib ko‘p qismli ashula turkumlarini namoyon etadi. Ayniqsa, besh qismli ashula turkumlari ko‘proq uchraydi. Xususan, “Chorgoh”, “Bayot”, “Bayoti Sheroziy”, “Gulyor-Shahnoz” singari ashula yo‘llari aynan besh qismdan iborat turkumli asarlardir.

Turkum qismlarini tashkil etuvchi ashula namunalari rim raqamlari vositasida belgilanadi. Masalan, “Bayot I”,

Mulla To‘ychi Toshmuhammedov

“Bayot II”, “Bayot III” va h.k. kabi. Ayrim hollarda esa, tarkibiy qismning maxsus nomlari ham uchraydi. Jumladan, “Gulyor-Shahnoz” ashula turkumining I qismi “Gulyor”, II qismi “Shahnoz”, III qismi “Chapandozi Gulyor”, IV qismi “Ushshoq” va V qismi “Qashqarchai Ushshoq” deb nomlanishi bunga misol bo‘la oladi.

Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘llarida “Farg‘ona – Toshkent musiqa uslubi”ga xos bo‘lgan yalla, ashula va katta ashula janrlarining xususiyatlari o‘zgacha aks etadi. Ashula yo‘llari mumtoz she’riyat (Sakkokiy, Navoiy, Bobur, Muqimiy, Uvaysiy, Furqat va b.q.) asosida o‘qiladi. Farg‘ona – Toshkent maqom ashula yo‘llarini o‘z ijrolari bilan yuksaltirgan maqomchi hofizlar qatorida Shorahim Shoumarov, Mulla To‘ychi Toshmuhammedov, Shojalil hofiz, Ilhom hofiz, Sodirxon hofiz, Yunus Rajabiy, Rasulqori Mamadaliyev, Fattohxon Mamadaliyev, Orifxon Hotamov kabi ustoz san’atkorlarning xizmatlarini alohida ta’kidlash kerak.

DUGOH-HUSAYN I

Navoiy g‘azali — *Farg‘ona – Toshkent* maqom yo‘li

Ey, sar - vi - noz, gul- sha-ni
bo - g‘i ma - lo - ha - tim.
Va gul - u - zor
ma - hi - va - shu sar - vi-
qo - ma-tim. La’-ling ta-
bas- sum et - di- yu, jo - nim a - sir -
dur. Shak - kar so - g‘in - di,
to‘ - ti ka - bi
yo‘q ha - lo - va - tim.

△

MEHR QO‘SHIG‘I

Nurmuhammad Isroilov she’ri *Xurshida Husanova* musiqasi





1. Dilda yaproq yozdi mehr daraxti,
Birga olqishlaylik, kel yorug‘ baxtni,
Kuylar bulbul, ochilar gul,
Sadoda ko‘ngil azizim!

N a q a r o t:
Dilga dil, kuyga ky nafis ulanar,
Baxtga zor dunyoga tinchlik tilanar.
Ko‘zni qamashtirar quyosh shu’lasi,
Sevinch-la kuylaymiz baxt ashulasin.

2. Oltin bolalikning har kuni tiniq,
Nahorday tiniq-u, bahorday iliq.
Kuylar bulbul, ochilar gul,
Sadoda ko‘ngil azizim!

△ “Mo‘g‘ulchai Dugoh Soqiynomasi” maqom aytimini kuylashga o‘rganing.

MO‘G‘ULCHAI DUGOH SOQIYNOMASI

Nodira g‘azali *“Dugoh”* maqomidan



Kel, dahrini imtihon etib ket,
Sayri chamanni jahon etib ket.

Bedardlaring jafolaridin
Faryod chekib, fig‘on etib ket.

USHSHOQ

Navoiy g‘azali

Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘li

M.M. ♩ = 76



?! 1. Maqom haqida umumiy tushunchangiz.
2. O‘n ikki maqom nomlari qanday?
3. Shashmaqom tarkibiga qanday maqomlar kiradi?
4. “Tasnif” doira usulini “bum-bak” bo‘g‘inlarida ifoda eting (ayting).
5. “Mushkilot” bo‘limi tarkibidagi beshta asosiy cholg‘u kuylari qanday nomlanadi?
6. “Nasr” bo‘limining asosiy aytim (ashula) yo‘llari qanday nomlar bilan ataladi?
7. “Qashqarcha” doira usulini “bum-bak” bo‘g‘inlarida ifoda eting (ayting).
8. Chorak davomida o‘rganilgan qo‘shiqlardan 2-3 ta namuna kuylab bering.
9. Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llariga doir ashula (aytim) turkumlarining nomini bilasizmi?
10. “Chorgoh IV” aytimining uch bayt g‘azalini yod oling.
11. Boshqotirmani yeching.

BOSHQOTIRMA

2. Shashmaqom cholg‘u bo‘limidan birining nomi.
3. Ikki torlik chertib chalinadigan cholg‘u.
4. Shashmaqom ashula bo‘limining umumiy nomi.
5. Shashmaqom cholg‘u bo‘limidan birining nomi.
6. Noxun bilan chalinadigan cholg‘u.
7. Farg‘ona-Toshkent musiqa uslubiga xos ashula yo‘li.
8. Shashmaqom tarkibida keluvchi beshinchi maqom nomi.
9. Ikkinchi maqom nomi.

III CHORAK

O‘ZBEK MUSIQA SAN’ATINING JAHON MUSIQA SAN’ATIDA TUTGAN O‘RNI

1-Mavzu. JAHON MUSIQA MADANIYATI HAQIDA

Musiqa madaniyati kishilik jamiyati ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutadi. Chunki, musiqa inson qalbida go‘zal tuyg‘ularni uyg‘otadi, uni yaxshi amallarni bajarishga chorlaydi. Shu bilan birga, musiqa, ayniqsa, “yoqimli ovoz, yuksak ta’sir kuchiga ega bo‘lib, uni eshitish bilan inson ichki alamlardan xoli bo‘ladi. Kishi har qanday qiyinchilikni, hatto ochlik, tashnalikni esidan chiqaradi. Musiqa og‘ir mehnatdan keyin dam olishning eng yaxshi vositasidir. Musiqaning ta’sir kuchini hatto shundan ham bilsa bo‘ladiki, yig‘lab turgan bola ona allasini eshitib, tinchlanadi va uxlab qoladi”[1].

Musiqa madaniyatining ildizlari qadim davrlarda shakllangan xalq musiqa ijodiga borib taqaladi.

Har bir xalqning uzoq asrlardan kelayotgan, ajdodlardan avlodlarga bebaho ma’naviy meros bo‘lib qolayotgan kuy va qo‘shiqlari, lapar va yallalari, ashula va allalari bor. Goho bu ma’naviy merosni bir ibora bilan “milliy musiqa” ham deyishadi. Chunki, bu musiqa milliy o‘zlikni anglashda, millionlab kishilar o‘zlarini bir tan-u bir jondek his qilishlarida katta ahamiyat kasb etadi.

Ayni paytda, kasbiy bastakor va kompozitorlar ham o‘zlari ijod qilayotgan doston, maqom, suvora, katta ashula yoki simfoniya va opera kabi asarlarida xalq musiqasiga tayanadilar. Chunki, mazkur janrlarda yaratilgan xalqchil musiqa asarlarining tinglovchiga badiiy-hissiy ta’sir kuchi ham yuqori bo‘ladi.

Musiqaning inson ma’naviy boyligini shakllantirishdagi va uni tarbiyalashdagi ahamiyati inobatga olinib, qariyb har bir mamlakatda ushbu san’atni yosh avlodga o‘rgatishga mo‘ljallangan maxsus o‘quv maskanlari ochilgan. Shuningdek, taniqli san’atkorlar ijrosida magnit tasmalari va CDga yozib

[1] *Rajabov I.* Maqomlar.T., 2006.

olingan asarlar omma orasida targ‘ib qilinadi. Musiqachilarning turli xil konsert zallari va radio-televideniye dasturlari orqali “chiqishlari” ham hozirda odatiy bo‘lib qolgan. Bularning barchasi hozirgi davr musiqa madaniyatini tashkil qiladi.

I.S.Bax asarlaridan namunalar tinglang.

KENG TURKISTON

Po‘lat Mo‘min she’ri — *Nadim Norxo‘jayev* musiqasi

Keng Turkiston teng uyimiz,
Birgalashsa dil-o‘yimiz,
Yashnamog‘in Turon zamin
Do‘stlik baxti etar ta’min.

Naqarot:
Turkistonning osmoni keng,
Kulaversin armoni teng,
Gullayotgan bo‘stoni keng,
Ipak yo‘li karvoni teng.

Naqarot:
Turkistonning osmoni keng,
Kulaversin armoni teng,
Gullayotgan bo‘stoni keng,
Ipak yo‘li karvoni teng.

Chorlaganda o‘z bag‘riga
Do‘stlar qonar do‘st mehriga
Osoyishta ona diyor
O‘ktamlikda o‘z o‘rni bor.

Naqarot:
Turkistonning osmoni keng,
Kulaversin armoni teng,
Gullayotgan bo‘stoni keng,
Ipak yo‘li karvoni teng.

Do‘stligimiz bo‘lsa shunday:
Yana yashnab kulsa kunday.
Qo‘lni qo‘lga bersa millat,
Tinch-u obod yurt-u elat.

POLIFONIYA HAQIDA TUSHUNCHA

“Polifoniya” so‘zi yunoncha bo‘lib, “poli” – ko‘p, “foniya” – “tovush”, “ovoz” ma’nolarini anglatadi. Demak, polifoniya deganda musiqa san’atidagi ko‘povozlilik tushuniladi. Bunda bir vaqtning o‘zida ikki va undan ortiq tovushlarning

o‘zaro uyg‘un sadolanishi anglanadi. Siz tinglagan asarning kompozitori I.S.Bax (1685 – 1750) bo‘lib, u nemis polifonik maktabining yirik namoyandasidir. Uning organ uchun yozgan ko‘plab fuga asarlari aynan polifonik uslubida ijod etilgan.

?! 1. Jahon musiqa madaniyati haqida tushunchangiz.
2.“Keng Turkiston” qo‘shig‘ining she’rini yod oling.
3. I. S. Bax asari tinglovidan olgan taassurotingizni gapirib bering.
4. Polifoniya haqida tushuncha bering.

2-Mavzu. SHARQ ALLOMALARI MUSIQA HAQIDA

Abu Nasr Forobiy

Sharq allomalari, shayxulmashoyixlar musiqa san’atiga yuqori baho berib, uning inson ruhiga ma’naviy quvvat bo‘lib xizmat qilishini alohida ta’kidlaganlar. Xususan, Hazrat Abu Bakr Buxoriy-Kalobodiy (vaf. 994-y.) musiqa tovushlari – nag‘malarni ta’riflab, ularni “jon quvvati va ruh ozig‘i turur. Agar jon nag‘madan quvvat topsa, o‘z maqomi sari ishrof aylaydi, ul maqom ila mashg‘ul bo‘lardi”, deb yozadi.

Demak, musiqa insonga ma’naviy oziqa bo‘lishi bilan birga uni tarbiyalashda ham ahamiyatli ekan. Chunki, ruhi tetik va barkamol kishi o‘zida yaxshi insoniy fazilatlarni mujassam eta oladi.

Abu Ali ibn Sino

Vatandoshimiz Abu Nasr Forobiyning (873–950) bu xususdagi fikri ham e’tiborlidir: “Musiqa ilmi shu ma’noda foydaliki, u o‘z muvozanatini yo‘qotgan odamlar xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo‘lgan odamlar xulqining muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun

ham foydalidir. Chunki tana kasal bo‘lsa, ruh so‘ladi, tana to‘siqqa uchrasa, ruh ham to‘siqqa uchraydi. Shuning uchun ovozlarning ta’siri bilan ruhni sog‘aytirish yordamida tana sog‘aytiriladi...”

Alloma Abu Ali ibn Sino (980—1037) musiqaning katta tarbiyaviy ahamiyati haqida aytgan quyidagi so‘zlari ham chuqur ma’noga ega: “Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo‘llamoq kerak. Biri, bolani asta-sekin tebratish, ikkinchisi esa, uni uxlatish uchun aytish odat bo‘lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo‘lgan iste’dodi hosil qilinadi”.

Alisher Navoiy

Sharq mutafakkirlari musiqaning pok va go‘zal muhabbat tuyg‘ularini ifodalovchi ajoyib xususiyatlari haqida ham hikmatli so‘zlarni bizga ma’naviy meros qoldirganlar.

Bu o‘rinda hazrat Alisher Navoiyning (1441—1501) so‘zlari bag‘oyat ta’sirlidir:

“Otashin yuzluk mug‘anniyki, xilqidin muloyim surud chiqorg‘ay,
Hol ahlining kuygan bag‘ridin dud chiqorg‘ay”.

Ya’ni, ovozi chiroyli xonandaning yoqimli ashulasi muhabbat ahlining qalbini yondiradi, kuydiradi.

O‘zbek mumtoz kuylaridan namunalar tinglang

?! 1. Sharq musiqa madaniyati haqida tushuncha bering.
2. Alisher Navoiyning qanday g‘azallari xonandalar tomonidan kuylangan?
3. “Qaro ko‘zim” ashulasini kimlar ijro etgan?
4. “Munojot” mumtoz kuyiga qaysi ulug‘ shoirning g‘azali bog‘langan?

3-Mavzu. JAHON MUSIQASI RIVOJINING ASOSIY BOSQICHLARI

Jahon musiqa madaniyati shakllanib, to hozirga qadar yetib kelish jarayonida bir necha tarixiy bosqichlarni boshdan kechirdi. Bu bosqichlar quyidagi nomlar bilan yuritiladi:

1. Qadimgi davr musiqa madaniyati.
2. O‘rta asrlar musiqa madaniyati.
3. Uyg‘onish davri musiqa madaniyati.
4. Ma’rifatparvarlik davri musiqa madaniyati (XVIII asr).
5. XIX asr musiqa madaniyati.
6. XX-XXI asr musiqa madaniyati.

Har bir davr musiqa madaniyatining o‘ziga xos jihatlari bor. Masalan, eramizdan avvalgi asrlardan to V asrga qadar davom etgan musiqa madaniyati asosan monodik (ya’ni bir ovozli) ko‘rinishda bo‘lgan. Bu davrda musiqa asosan Misr, Xitoy, Hindiston kabi qadimgi Sharq mamlakatlarida, keyinroq esa, qadimgi Yunonistonda ham o‘tkazilgan turli marosimlarda ishlatilgan. Bunda ud va arfasimon torli-chertma, sibizg‘a singari puflama hamda xilma-xil zarbli-urma cholg‘ular keng qo‘llanilgan.

V asrdan to XIV asrgacha davom etgan (ya’ni qadimgi dunyo bilan yangi tarix oralig‘idagi davr) O‘rta asrlarda musiqa madaniyati turli o‘zgarishlarga yuz tutdi. Jumladan, G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida musiqaning rivoji asosan xristian cherkov madaniyatiga bog‘langan edi. Aynan cherkov xorida musiqaning ko‘p ovozli (polifonik) uslubi qaror topdi. Shuningdek, katolik cherkovlarida organ cholg‘usi ham keng qo‘llanila boshlandi.

Sharq mamlakatlarida esa, aksincha, monodik uslub o‘z kuchini saqlab qoldi. Musulmon olamida maqom san’ati yoyildi. Sozandalik va xonandalik san’ati rivojlandi.

XIV–XVI asrlar musiqa madaniyati jahon tarixida ko‘proq “uyg‘onish davri” (renessans) nomi bilan mashhur. Bu davrga kelib G‘arbiy va Markaziy Yevropadagi mamlakatlarda antik san’atni o‘rganishga, uning yuksak namunalarini qayta tiklashga bo‘lgan harakatlar avj olgan edi. Aynan shu harakatlar bois Italiyada opera janri yuzaga keldi va rivojlana boshladi.

Ma’rifatparvarlik g‘oyalari ustuvorligida o‘tgan XVIII asr Yevropa musiqa madaniyatida jahonga mashhur “Vena klassik

maktabi” shakllandi. Sharqda esa, maqomotning yangi tizimlari yuzaga keldi. Xususan, O‘rta Osiyoda (o‘zbek-tojik musiqa madaniyatida) dovrug‘i olamga ketgan Shashmaqom san’ati bunyod etildi.

A. Vivaldinining “Yil fasllari” turkumidan namunalar tinglang.

YURTGA SADOQAT

Safar Barnoyev she’ri *Habibullo Rahimov* musiqasi

Yurtga sadoqat qonimizda bor,
Mehr-u oqibat jonimizda bor.
Qut-u baraka, mehmonga hurmat
Yoygan dasturxon, nonimizda bor.

Sher yurtning sherdil
o‘g‘lonlarimiz,
Metin, mustahkam
qo‘rg‘onlarimiz.
Yursak o‘t chaqnar
izlarimizdan,
Bahomiz so‘rang
qizlarimizdan.

So‘zimiz butun, o‘zimiz butun,
Mardona topgan tuzimiz butun.
Butunlik asli, maqtansak arzir,
Bobolar ekkan donimizda bor.

Biz yurtning adl
ustunlarimiz,
Qo‘limizdadir xush
kunlarimiz.
Sher yurtning sherdil
o‘g‘lonlarimiz,
O‘zbekistonning
qo‘rg‘onlarimiz.

A. Vivaldining “Yil fasllari” turkumidan namunalarni tahlil qiling.

?! 1. Jahon musiqa madaniyati tarixi taraqqiyot bosqichlari haqida qanday ma’lumotlarga egasiz?
2. Kompozitor A.Vivaldi haqida nimalarni bilasiz?
3. Uning “Yil fasllari” turkum asari qanday cholg‘ular jamoasi ijrosi uchun mo‘ljallangan?
4. Bu asarda qish fasli qanday badiiy vositalar asosida ifodalangan?
5. Asardan olgan taassurotingizni gapiring.

4-Mavzu. VENA KLASSIK MAKTABI NAMOYANDALARI

XVIII asr ikkinchi yarmidan e'tiboran Avstriyaning poytaxti Vena shahrida musiqa madaniyati tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Ma'rifatparvarlik asrining g'oyalari ustuvor bu shaharda avstriya, olmon, venger, italyan, slavyan va boshqa xalqlarning inoq hayotini ko'rish hamda ularning milliy ohanglarini tinglash mumkin edi. Aynan ana shu ohanglar uyg'unligiga asoslangan holda XVIII asr so'nggi choragiga kelib Venada musiqa ijodkorlari – kompozitorlarning o'ziga xos maktabi yuzaga kelgan edi. Tarixda "Vena klassik maktabi" nomi bilan ham shuhrat topgan bu ijodiy maktab an'analari dastlab Yozef Gaydn (1732–1809) va Volfgang Amadey Motsart (1756–1791) musiqa asarlarida qaror topib, keyinchalik ularning yosh zamondoshi Lyudvig van Betxoven (1770–1827) tomonidan ijodiy davom ettirilgan edi.

Y. Gaydn

V.Motsart

L.Betxoven

Ushbu maktab namoyandalari jahon musiqa madaniyatini sonata, kvartet, simfoniya kabi yirik cholg‘u musiqa asarlari bilan boyitishga muyassar bo‘ldilar.

Vena klassik maktabi kompozitorlari ijodida simfoniya janrining mumtoz shakli ham uzil-kesil shakllandi va ravnaq topdi. Shunga ko‘ra bu turdagi simfoniya to‘rt qismdan iborat turkumli asar bo‘lib, uning ilk qismi tez sur’atda (sonata allegrosi), ikkinchi qismi sokin va vazmin, uchinchisi esa raqs (menuet, skerso) xarakterida va nihoyat yakuniy to‘rtinchi qismi jo‘shqin final tarzida yangragan. Odatda, bu kabi simfonik asarlarni shunga ixtisoslashgan simfonik orkestr ijro etadi.

Vena klassik maktabi namoyandalaridan Y.Gaydn yuzdan ortiq, V.Motsart qirq bitta, L.Betxoven esa to‘qqizta simfoniya turkumlarini ijod etgan.

Vena klassik maktabi kompozitorlari opera san’atini ham sermazmun asarlari bilan boyitishga va shu asnoda uni rivojlantirishga o‘z hissalarini qo‘shganlar. Bunga V.A.Motsartning “Figaroning uylanishi”, “Sehrli nay”, “Don Juan”, L.Betxovenning “Fidelio” operalari yorqin dalildir.

⊙ *L.Gaydn, V. Motsart yoki L. Betxoven asarlaridan namunalar tinglang.*

BAHOR CHORLOVI

△ *Betxoven* musiqasi


лод- ный се- дой зи- мы по- кров, зи-мы по-
кров. По- ля, ле- са и ни- вы ты
к жиз- ни под- ни- май, раз- бей зи- мы о-
ко- вы, и - дёт, и- дёт к нам свет-лый
май, и - дёт, и - дёт к нам свет-лый
май. Вос-стань, рав- ни-на, про-бу- дись, го-товь- ся
и встре-чай. И- дёт к нам свет-лый май.

𝄞 Motsart va Betxoven ijodi haqida.

Avstriyalik buyuk kompozitor, Vena klassik maktabining yirik namoyandasi Volfgang Amadey Motsart (1756.27.1 Zalsburg, 1971.5.12, Vena) yorqin iste'dod va kuchli xotira sohibi bo'lgan. Musiqadan ilk saboqlarni otasi Leopold Motsartdan oladi va tez orada klavishli cholg'ularning mohir ijrochisi hamda ijodkor sifatida tanila boshlaydi.

Volfgang Amadey Motsart Zalsburg knyaz-arxiepiskop saroyida konsertmeyster (1769 – 1777) va organchi (1779 – 1781), Avstriya imperatori Iosif II saroyida musiqachi va kompozitor (1787-yildan) lavozimlarida ishlagan. Uning qalamiga mansub 41 ta simfoniya mazmunida Iozef Gaydn ijodida shakllangan simfoniya janrining yangi ma'nolar bilan boyitilganligini ko'ramiz. Ayni vaqtda Motsart opera janri rivojiga ham ulkan hissa qo'shgan ijodkordir. Bu borada uning "Figaroning uylanishi" opera-komediyasi (1786), "Don Juan" opera-dramasi (1787), "Sehrli nay" opera-ertagi (1791) kabi asarlarining badiiy qiymati salmoqli bo'lgan. Shuningdek, Motsart kantata, rekviem, torli kvartet, qo'shiq, turli cholg'ular (skripka, fortepiano va b.) uchun konsert, sonata singari ko'plab janrlarda o'lmas asarlar yaratdi.

Vena klassik maktabining yana bir yirik namoyandasi Lyudvig van Betxoven (1770.16.12 Bonn – 1827, Vena) ham Motsart singari musiqadan dastlabki saboqlarni otasi Iogann Betxovendan olgan. 1792-yili Venaga shahriga ko'chib kelgach, Yozef Gaydn ustozligida kompozitsiya sir-asrorlarini mukammal o'zlashtiradi. Ayni vaqtda fotepiano ijrochisi hamda dirijor sifatida Venada shuhrat qozonadi.

Betxovenning kompozitorlik ijodida qahramonlik, baxtga erishish uchun mardonavor kurashish, bashariyat saodati yo'lida zarur bo'lsa jon fido qilish g'oyalari tarannum etiladi. Kompozitor yaratgan kvartetlar, fortepiano va skripka uchun konsert va sonatalar, "Fidelio" operasi, 9 ta simfoniya va yana ko'plab asarlari jahon musiqa hazinasidan o'rin olgan.

?! 1. Vena klassik maktabi namoyandalaridan kimlarni bilasiz?
2. Ularning ijodida qaysi musiqiy janrlar rivoj topdi?
3. "Yurtga sadoqat" qo'shig'ini yoddan kuylang.
4. Vena maktabi kompozitorlarini ayting.
5. "Fidelio" operasi kimning ijodiga mansub?

5-Mavzu. XIX – XX ASRLAR MUSIQA MADANIYATI. MUSIQADA IMPRESSIONIZM

XIX asrga kelib Yevropa mamlakatlarida kompozitorlik ijodiyoti yanada keng yoyildi, jahonga dong‘i ketgan mumtoz milliy maktablar (masalan, rus, polyak, chex, norveg, venger va b.) yuzaga keldi. Shu bilan birga kompozitorlar ijodida boshqa san’at turlarida bo‘lgani kabi turli ijodiy oqimlar ham shakllandi. Jumladan, XIX asr boshlarida Yevropaning ko‘pgina kompozitorlari ijodida romantizm badiiy yo‘nalishi qaror topdi.

F. Shopen

F. Shubert

N.Paganini



F.List

Fransuz tilidan olingan “romantizm” so‘zi keng ma’noda, san’atkorning o‘zi yashab turgan hayotdan qanoatlanmay, balki orzu qilgan xayoliy voqelikni tasvirlashga intilishini anglatadi. Shu bois, aksariyat romantik kompozitorlar ijodida fantastik obrazlar, shirin xayol mavzulari muhim o‘rin tutadi. Bu boradagi romantizm badiiy usuli avstriya kompozitori Frans Shubert, italyan kompozitorlari N.Paganini, J.Rossini, polyak kompozitori F.Shopen, nemis kompozitorlari K.Veber, F.Mendelson, R.Shuman, R.Vagner, venger kompozitori F.List, fransuz kompozitori G.Berlioz asarlarida yorqin namoyon bo‘ladi.

Bu kompozitorlar ijodida romantik ruh bilan sug‘orilgan simfoniya, opera, ballada, qo‘shiq va dasturli musiqa janrlari rivoj topdi. Ularda xalq turmushi va tabiat manzaralari, hayotiy va fantastik (xayoliy) obrazlar badiiy ifoda etilgan.

F.Shubertning “Serenada”sini tinglang.

3
листь - я в позд - ний час,
3
листь - я в позд - ний час,
и ни-кто, о друг мой ми - лый
3
3
не у-слы - шит нас, не у- слы - шит
1.
нас.
2.
ни. Дай же до - ступ их при-
зва - нью ты к ду - ше сво-
3
ей, и на тай - но-
е сви - да - ные

Badiiy ijodiyotda yuzaga kelgan realizm yo‘nalishida hayotiy voqealarni haqqoniy ifodalash va ayni vaqtda insonparvarlik g‘oyalarini tarannum etish ustivordir. Tanqidiy realizmda esa jamiyatda uchraydigan ayrim illat va adolatsizliklar keskin tanqid ostiga olinadi. Musiqa san’atida realizm tamoyillari italyan kompozitori J.Verdi, fransuz kompozitori J.Bize, rus kompozitorlari M.Glinka, A.Dargomijskiy, M.Musorgskiy, P.Chaykovskiy, A.Borodin, N.Rimskiy-Korsakovlar ijodida kuzatiladi.

M.Musorgskiy

J.Verdi

M.I.Glinka
“Kamarinskaya”

M.Glinka

Rus klassik musiqasining asoschisi M.I.Glinka o‘zidan boy ijodiy meros qoldirdi. Bu ma’naviy meros asosini uning qalamiga mansub “Ivan Susanin” va “Ruslan va Lyudmila” operalari, simfonik asarlari, dramatik spektaklga musiqa, fortepiano asarlari, romans va qo‘shiqlari tashkil etadi.

Kompozitorning eng katta xizmati shundan iboratki, u o‘z ijodi bilan rus klassik kompozitorlik maktabining tarixiy yo‘nalishini belgilab berdi va ayni paytda, jahon klassik musiqasi rivojiga o‘z hissasini qo‘shdi. Binobarin, M.I.Glinka rus simfonik musiqasi asoschilaridan biri hisoblanadi. Bunga uning simfonik orkestri uchun yozilgan “Kamarinskaya” fantaziyasi yaqqol misol bo‘la oladi. Mazkur asarda kompozitor rus xalq qo‘shiqlaridan “To‘yona”, “Baland tog‘ ortida” va “Kamarinskaya”larning kuylarini mahorat bilan qo‘llab, rang-barang kompozitsiya yaratishga muvaffaq bo‘lgan.

Iqtibos etilgan kuylardan biri “Baland tog‘ ortida” so‘lim va ohangdordir.

SVADEBNAYA (TO‘YONA)



Mazkur kuydan farqli o‘laroq, ikkinchi mavzu hazilomuz va raqsona sho‘x “Kamarinskaya”dir.

KAMARINSKAYA

Asar davomida ikkala mavzu turlicha ko‘rinishlarda tuslanib, yangi sifatlar kashf etadi va pirovardida mahobatli asar darajasida rivojlanadi. Shu asnoda xalq kuylari asosida mumtoz simfonik asar bunyod etilishining guvohi bo‘lamiz. M.I.Glinkaning simfonik orkestri uchun “Kamarinskaya” fantaziyasi kompozitorning: “Musiqani xalq yaratadi, biz san’atkorlar esa unga faqat sayqal beramiz”, — degan mashhur iborasini go‘yo yana bir bor ta’kidlaydi.

XIX asrning so‘nggi choragiga kelib G‘arbiy Yevropa musiqa san’atida impressionizm badiiy oqimi shakllana

boshladi. Impressionizm atamasi fransuzcha “impression” so‘zidan olingan bo‘lib, “taassurot” ma’nosini anglatadi. Bunda klassitsizm yoki romantizm ko‘ndalang qo‘ygan “hayot-mamot” masalalari emas, balki kundalik hayot manzaralari va ulardan olingan ilk taassurot badiiy ifoda etiladi.

Impressionizm oqimi dastlab K.Mone, O.Rensar, E.Dega, K.Pissaro kabi fransuz rassomlari ijodida yuzaga kelib, so‘ngra badiiy adabiyot, teatr qatorida musiqa san’atida ham o‘ziga xos ravishda namoyon bo‘ldi. Musiqiy impressionizm xususiyatlari fransuz kompozitorlari – K.Debyussi, M.Ravel, italyan kompozitorlari O.Respigi, A.Kazella, ingliz kompozitorlari – F.Delius, S.Skott va boshqalar ijodida namoyon bo‘ldi.

XX asrning o‘rtalariga kelib impressionizm badiiy oqimi barham topdi.

△

YOSHLIK QO‘SHIG‘I

(Savti Munojot kuyi)

Muxtor Ashrafiy qayta ishlagan



kam, O‘l - ka - ki a - ziz,
u - lug‘ - vor, ko‘r -kam, o‘l - ka - ki a -
ziz, u - lug‘ - vor, ko‘r-kam.
dolce
Jo -nim fi - do - dir sen- ga, di - yo-
rim, sen - san ha - yo - tim,
bax - tim, ba - ho - rim.
Sen - san ha- yo - tim, bax - tim, ba - ho-
rim. Qan-day go‘-zal - dir



Qanday go‘zaldir bu yoshlik, bahor,
Ko‘nglimga mayin kuy yanglig‘ yoqar.

Sen abad yashna, gulla, jon o‘lkam,
O‘lkaki aziz, ulug‘vor, ko‘rkam.

Jonini fidodir, senga diyorim,
Sensan hayotim baxtim bahorim.

F. Shubertning “Serenada” asarini tahlil qiling.

?! 1. Romantizm deganda nimani tushunasiz?
2.Qaysi kompozitorlarning ijodi romantizm badiiy yo‘nalishiga mansub?
3.Impressionizm deganda nimani tushunasiz?

6-7-Mavzu. XX ASR O‘ZBEKISTON MUSIQA MADANIYATIGA DOIR

XX asr davomida O‘zbekiston musiqa madaniyatida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bunda xalq musiqasi, an’anaviy kasbiy musiqa rivoji bilan birga yana ko‘povozli musiqaga mansub

opera, simfoniya, balet, oratoriya, xor, sonata, kinomusiqa, estrada kabi janrlar ham yuzaga kela boshlaganligi ko‘zga tashlanadi.

Ayni paytda, Respublikada musiqiy ta’limning yevropacha usuliga asoslangan maxsus o‘quv yurtlari, Toshkent Davlat konservatoriyasi ochilganligini, shuningdek, musiqali drama va komediya, opera va balet asarlarini sahnalashtirishga mo‘ljallangan teatr truppalari tashkil topganligini ko‘ramiz.

Shu bilan birga, ko‘p asrlik tarixga ega an’anaviy bastakorlik jabhasida yangi jihatlar namoyon bo‘ladi, musiqiy ijodkorlikning “yevropacha” ko‘rinishi bo‘lgan kompozitorlik sohasi esa jadal sur’atlarda shakllana boshlaydi.

Bastakorlik ijodiyoti. O‘zbek musiqasining XX asrdagi rivojida bastakorlik ijodiyoti alohida o‘rin tutadi. Bastakorlar, odatda, mohir sozanda yo yetuk xonanda bo‘lib, an’anaviy musiqa turlari bo‘lgan ashula, katta ashula, suvora, maqom, kuy kabi janrlarda ijod qilib kelganlar. Bunda bastakorlar o‘zlari to‘qigan asarlarning dastlabki ijrochilari sifatida ham elga tanilganlar. Xalqimizning sevimli san’atkorlari bo‘lgan Hoji Abdulaziz Rasulov, Mulla To‘ychi Toshmuhamedov, To‘xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Komiljon Jabborov, G‘anijon Toshmatov, Muhammadjon Mirzayev, Faxriddin Sodiqov singari bastakorlar faoliyati bunga misol bo‘lishi mumkin. Zero, ularning har biri iste’dodli ijodkor bo‘lish bilan birga, yana mahoratli ijrochilar hamdir.

XX asr mobaynida o‘zbek bastakorlari milliy musiqamizning janrlar doirasini yangi namunalar bilan kengaytirishga ham o‘z hissalarini qo‘shdilar. Bu borada, ayniqsa, bastakor To‘xtasin Jalilov (1896–1966) faoliyati e’tiborlidir. Ko‘pgina xalqchil kuy, qo‘shiq va ashulalar muallifi bo‘lgan To‘xtasin Jalilov Respublikamizda musiqali drama janri shakllanib, rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shdi. Jumladan, atoqli san’atkor “Halima”, “Gulsara”, “Nurxon”, “Tohir va Zuhra”, “Ravshan va Zulxumor”, “Alpomish” kabi sahna asarlariga ajoyib musiqa namunalarini ijod etgan.

“Tohir va Zuhra” musiqali dramasidan Tohir va Zuhra duetini tinglang.

HOJI ABDULAZIZ RASULOV

Hoji Abdulaziz Rasulov

Samarqandlik mashhur hofiz va bastakor, O‘zbekiston xalq artisti Hoji Abdulaziz Rasulov (1852 – 1936) tanbur va dutor chertish hamda ashula aytish yo‘llarini mukammal egallagan san’atkor edi. Jumladan, u tanburda maqom cholg‘u kuylarini ijro etishni tanburchi – san’atkor Hoji Rahimberdidan, ashula san’atini esa avvaliga taniqli hofiz Boruxdan, keyinchalik Buxoroda ustoz-maqomdon Ota Jalol Nosirdan o‘rgandi.

Hoji Abdulaziz Rasulov muqaddas Makkai Munavvaraga hajga borib, “hoji” nomiga sazovor bo‘lgan edi. Hoji Abdulaziz Rasulov ijrochilik bisotida (repertuarida) 200 dan ziyod ashula va cholg‘u kuylari bo‘lib, bunda hofiz ashula yo‘llarini Buxoro-Samarqand an’anasiga oid o‘zbek va tojik tillarida kuylagan. Shu bilan birga, H.A.Rasulov nafaqat Buxoro-Samarqand musiqa uslubini, balki o‘zbek musiqasiga doir boshqa mahalliy an’analarni ham ijodiy o‘zlashtirgan edi. Xususan, Buxoro-Samarqand hofizlari maqom ashula yo‘llarini tanburda jo‘rsozlik qilib aytsalar, H.A.Rasulov bu o‘rinda dutorni ham qo‘llayvergan. Maqom ijrochiligida dutordan foydalanish amaliyoti esa Xorazm va Farg‘ona-Toshkent musiqa uslublariga ko‘proq xosdir.

H.A.Rasulov Xorazm kuylarini, jumladan, dostonchilik aytimlarini ham yaxshi bilgan bo‘lib, ulardan o‘z ijodida unumli foydalangan. Chunonchi, ustozning “Bozurgoniy” deb nom olgan ashula namunasi Xorazm doston kuylari asosida, mashhur “Guluzorim” nomli ashulasi esa Farg‘ona-Toshkent “Eshvoyi” asosida ijod etilgan.

YUNUS RAJABIY

Hassos bastakor, xonanda va sozanda, O‘zbekiston xalq artisti, akademik Yunus Rajabiy (1897–1976) milliy musiqa madaniyatimiz ravnaqiga ulkan hissa qo‘shgan. Atoqli san’atkorning komillik sari yuksalish bosqichlari

dastlab madrasada an'anaviy tahsil olish bilan boshlanib, keyinchalik Turkiston Xalq konservatoriyasi (1919–1923), Toshkent Oliy musiqa maktabining tayyorlov kursi (1934) hamda Moskvada tashkil etilgan kompozitorlar kursi (1940–1941) da davom etgan. Ayni paytda, mumtoz musiqa namunalaridan Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarini mashhur hofizlar Mirza Qosim, Shorahim Shoumarov va Mulla To'ychi Toshmuhamedovlardan mukammal o'rgandi, Buxoro maqomlarini Hoji Abdulaziz Rasulov, Domla Halim Ibodov kabi zabardast maqomdonlar ustozligida o'zlashtirdi.

Yunus Rajabiy

Erishgan teran bilimi va amaliy-ijodiy malakalari pirovardida Yunus Rajabiy Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, Shashmaqom turkumi, katta ashula, bastakorlik asarlari hamda xalq musiqa ijodiyotining turfa namunalarini nota yozuvlariga oldi va ularni besh jildlik "O'zbek xalq musiqasi" hamda olti jildlik "Shashmaqom" to'plamlarida nashrdan chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Shu bilan birga, Yunus Rajabiy O'zbekiston radiosi huzurida 1959-yilda Maqom ansambli ijodiy jamoasini tuzib, umrining oxiriga qadar unga badiiy rahbarlik qildi.

Yunus Rajabiy bastakorlik jabhasida xalqchil milliy uslubni ilgari surgan san'atkordir. Xususan, uning "Fabrika yallasi", "Bizning davron", "O'zbekiston", "Bahor keldi", "O'yin bayoti", "O'yin dugohi", "Paxta", "Koshki", "Kuygay", "Ra'nolanmasun" kabi ashula va raqs kuylari, ijodiy hamkorliklar natijasida yaralgan "Farhod va Shirin", "Muqanna", "Navoiy Astrobodda" musiqali dramalari hamda "Zaynab va Omon" operasida ko'p asrlik badiiy an'analar zamon ruhi ila qayta jonlanadi.

"Zaynab va Omon" operasidan Ergash qo'shig'ini tinglang va kuylang.

Chaqqon

Suv - dan ko‘- tar - dim ko‘ - za, ko‘ - za - da ol -
tin g‘o‘- za, ko‘ - za - yu, g‘o‘- za - yu qo‘ - lim - da,
yal - la - li bo - bo, yal - la. U - zum - zor - lar -
dan shin - ni, chin - ni - kor - lar - dan chin - ni!
U-zum- zor- lar - dan shin -ni, chin - ni - kor - lar -
dan chin- ni. Shin- ni- yu, chin- ni- yu, ko‘ - za- yu g‘ o‘ - za
qo‘ - lim - da, yal - la - li bo - bo, yal- la.
So - at - ga ol - dim zan - jir, bog‘ - lar - dan ter -
dim zan - jir. Zan- ji - ru, an - ji - ru, shin - ni - yu, chin- ni- yu,

ko‘ - za- yu g‘o‘ - za qo‘- lim - da, yal - la - li bo- bo,
yal - la. Zan - ji - ru, an - ji - ru, shin - ni - yu, chin -ni - yu,
ko‘- za - yu g‘ o‘ - za qo‘ - lim - da, yal -la li bo - bo,
yal - la. O‘r- mon - lar - dan ar - cha
bo- fan - da - lar - dan par - cha, o‘r - mon - lar - dan
ar - cha, bo - fan - da - lar - dan par- cha.
Ar- cha- yu, har - cha - yu, zan- ji - ru, an - ji - ru,
shin- ni -yu, chin- ni -yu, ko‘- za- yu g‘o‘- za qo‘- lim- da
yal - la - li bo- bo, yal - la. Ar- cha- yu, par- cha - yu
zan - ji - ru, an - ji - ru, shin - ni - yu, chin - ni - yu



8-Mavzu. O‘ZBEK MUSIQASIDA KOMPOZITORLIK IJODIYOTI

Ma’lumki, simfoniya, opera, balet, oratoriya, xor kabi janrlarda ijod qiluvchi musiqachilarni “kompozitor” deb yuritishadi. Kompozitorlar o‘zlari ijod etgan musiqa namunalarini, odatda, besh chiziqli nota tizimi vositasida yozib oladilar va shu asosda ularning musiqa asarlari ijro etiladi, shu tariqa avlodlarga meros qoladi.

Dastlab G‘arbiy Yevropada qaror topgan kompozitorlikka xos musiqiy janrlar va ijodkorlik an’analarining O‘zbekiston madaniyatiga kirib kelishida rus san’atkorlarining xizmati katta bo‘lgan. Bu jarayonda kompozitorlar xalq musiqa boyliklariga tayangan holda musiqali drama, opera, simfoniya, kinomusiqa va boshqa asarlar yaratishga intilganlar. Xususan, Viktor Uspenskiy, Nikolay Mironov, Sergey Vasilenko, Aleksey Kozlovskiy, Reyngold Glier, Georgiy Mushel va boshqa rus madaniyati namoyandalari o‘zlarining O‘zbekistonda ijod etgan asarlarida musiqiy folklor namunalaridan keng foydalanganlar. Shu asosda, masalan, V.Uspenskiy simfonik orkestri uchun “Четыре мелодии народов Средней Азии” suitasini, A.Kozlovskiy “Lola” suitasi va “Tanavor” baletini, R.Glier “Farg‘ona bayrami” simfonik uvertyurasini ijod etgan. Bu hol keyinchalik o‘zbek kompozitorlari – Tolibjon Sodiqov, Muxtor Ashrafiy, Mutal Burhonov, Doni Zokirov, Sulaymon Yudakov, Manas Leviyev, Sayfi Jalil, Ikrom Akbarov, Mirsodiq Tojiyev kabi o‘zbek kompozitorlari tomonidan ijodiy davom ettirildi.

Shuni ham aytish kerakki, dastlabki davrlarda musiqali drama va ayniqsa, opera kabi murakkab janrlarni o‘zlashtirishda kompozitorlar ijodiy hamkorlik ham qilganlar. Jumladan, 1939-

yili sahnalashtirilgan ilk o‘zbek operasi “Bo‘ron” M.Ashrafiy va S.Vasilenko hammuallifligida, 1940-yili sahna “yuzini” ko‘rgan “Layli va Majnun” operasi esa R.Glier va T.Sodiqovlarning hamkorligi natijasida yuzaga kelgan edi.

O‘zbek kompozitorlarining musiqaviy sahna janrlarini o‘zlashtirish borasida keyingi yillarda olib borgan faoliyatlari anchagina e’tiborli bo‘lgan. Xususan, M.Ashrafiyning “Dilorom”, S.Yudakovning “Maysaraning ishi”, S.Boboyevning “Hamza”, I.Akbarovning “So‘g‘d elining qoploni”, R.Hamroyevning “Zulmatdan ziyo”, S.Jalilning “Zebunniso” operalarida shunday natijalarni ko‘rish mumkin.

O‘zbek kompozitorlari asarlaridan namunalar tinglang

△

YAKKADIR TOSHKENT

Usmon Qo‘chqor she’ri — *Dilorom Omonullayeva* musiqasi

Pa-rij dir(o)Ko -hi - ra Ru -mo, mak-ka-dir,
Ey, do‘s-tim Tosh-kent -ning tup-ro - g‘i - ni o‘p,
O‘z - be-kis - ton tan -ho, Tosh- kent yak- ka - dir,
o-nam - san, meh -rim - ni ay -
tar-man, Tosh-kent ko‘z - da yosh , bag‘-ring-ga qay -
tar-man, Tosh- kent ey do‘s - tim, Tosh- kent-ning,
tup -ro - g‘i -ni o‘p, O‘z - be-kis - ton tan -ho,
yak - ka - dir Tosh - kent.

Ko‘zlangan manzilim uzoqdir zotan,
Istiqlolga boqqan ko‘zimsan, Toshkent.
Mening uyg‘oq turgan yuragim – Vatan,
Vatanim yuragi o‘zingsan – Toshkent.

Bir sayyoh singari dunyoni kezdim,
Poytaxtlarni ko‘rdim dovrug‘i doston.
Vatan qayda bo‘lmay mehringni sezdim,
Mehring tortaverdi jon O‘zbekiston.

V.A. USPENSKIY HAQIDA

Rus madaniyatining yorqin namoyandasi, taniqli musiqa etnografi va iste’dodli ijodkori Viktor Aleksandrovich Uspenskiy (1879–1949) XX asr O‘zbekiston musiqa san’ati rivojiga munosib hissa qo‘shdi. U Sankt-Peterburg konservatoriyasini bitirib, 1917-yili Toshkentga kelgan paytidan boshlab o‘zbek xalq va kasbiy musiqasini jiddiy o‘rgandi hamda ularni nota vositasida yozib olishda jonbozlik ko‘rsatdi. Jumladan, 1922-yili V.A. Uspenskiy davlat va jamoat arbobi, shoir, dramaturg va olim Abdurauf Fitrat tashabbusi bilan mumtoz Shashmaqomni buxorolik ustozlar – hofiz Ota Jalol Nosir va tanburchi Ota G‘iyos Abdug‘anilar ijrosida yozib oldi. Ushbu nota yozuvlari 1924-yili “Olti musiqali noma (maqom)”[1] nomi bilan nashr etildi. Bajarilgan bu mehnat natijalarini yuqori baholagan professor A.Fitrat o‘z minnatdorchiligini shunday izhor etgan edi: “Qadimgi maqomlarni yig‘ish va yozib olish sizga topshirilgan edi. Siz bu vazifani mohirona bajardingiz hamda Sharq musiqasini to‘plab, nashr qilib, abadiylashtirish ishiga juda katta hissa qo‘shganingiz uchun tashakkurnomamizni qabul qilgaysiz. *A.Fitrat*”[2].

V.A.Uspenskiy va Sh.Shoumarov

[1] «Shashmaqom».

[2] A.H.Jabborov. O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. Toshkent. 2004. 361-bet.

V.A.Uspenskiy, shuningdek, toshkentlik atoqli hofiz Shorahim Shoumarovdan “Chorgoh”, “Bayot”, “Shahnozi Gulyor”, “Dugoh- Husayn” kabi Farg‘ona–Toshkent maqom ashula yo‘llarini ham nota yozuvlarida aks ettirishga muyassar bo‘lgan. Ayni paytda, xalq ma’naviy hayotining ajralmas qismi bo‘lgan musiqiy folklorga katta e’tibor bergan. Bu borada u o‘z maqolalaridan birida shunday e’tirof qiladi: “Xalq musiqa ijodiyotini yig‘ish va o‘rganish ishlari madaniyat tarixining asosiy vazifalaridan birini tashkil etadi. Zero, qo‘shiq ma’naviy hayotga juda yaqin bo‘lgani holda, xalqning eng muqaddas tuyg‘ularini ayon etadi, uning ichki olami, qiyofasi, qolaversa, turmush tarzini in’ikos etadi”.

V.A.Uspenskiy Respublikamizning Xiva, Buxoro, Samarqand, Qo‘qon, Andijon va Marg‘ilon shaharlariga, shuningdek, qo‘shni Turkmaniston va Tojikiston Respublikalarining qator tumanlariga musiqiy-etnografik ekspeditsiyalar uyushtirgan. Bu ilmiy-ijodiy mehnat jarayonida juda boy va qimmatli musiqa namunalari yig‘ib olingan edi.

V.A.Uspenskiy o‘zining kompozitorlik ijodida maqom va xalq kuylariga asoslanib musiqa asarlari yozganligi samarali bo‘lgan. Xususan, u “Четыре мелодии народов Средней Азии” nomli orkestr suitasida afg‘on, qozoq va o‘zbek xalq ohanglarini mohirona qo‘llagan bo‘lsa, orkestr ijrosi uchun mo‘ljallangan “Dugoh-Husayn”, “Poema-rapsodiya”, “Lirik poema” hamda “Farhod va Shirin” musiqali dramasida maqom yo‘llariga ijodiy tayangan.

?! 1. “Lola” suitasi va “Tanavor” baletini qaysi kompozitor yaratgan?
2. O‘zbek kompozitorlarini aniqlang:
A.Kozlovskiy, S.Vasilenko, T.Sodiqov, M.Ashrafiy, R.Glier, M.Burxonov, D.Zokirov.
3. Ilk o‘zbek operasi qanday nomlanadi?
4. “Maysaraning ishi” operasini kim yaratgan?
5. V.Uspenskiy O‘zbekistonda qanday ishlarni amalga oshirgan?
6. “Yakkadir Toshkent” qo‘shig‘ida qanday g‘oya ilgari surilgan?

9-Mavzu. MIRSODIQ TOJIYEV IJODIDA O‘ZBEK SIMFONIYASINING YUKSALISHI

O‘zbekistonda simfonik musiqaning shakllanish va rivojlanish jarayoni “oddiydan murakkab”ga tamoyili asosida bosqichma-bosqich amalga oshdi. Dastlab,1920-yillari o‘zbek xalq kuylarini simfonik orkestrga moslashtirish amaliyoti qo‘llangan bo‘lsa, keyingi o‘n yilliklar (1930–1940) mobaynida suita, poema, uvertyura kabi janrlar kompozitorlarimiz tomonidan amaliy o‘zlashtirildi. Erishilgan ijodiy natijalar ayni chog‘da rasmana simfoniya yaratish uchun ham muhim poydevor bo‘ldi.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, kompozitor Mirsodiq Tojiyev (1944–1996) milliy simfoniya yaratish ishiga o‘z hissasini qo‘shgan V.Uspenskiy, A.Kozlovskiy, G.Mushel, M.Ashrafiy va boshqa salaflari “yo‘li”ni munosib davom ettirishga va bu borada to‘plangan badiiy natijalarni yanada yuksaltirishga muvaffaq bo‘ldi. Qolaversa, M.Tojiyev o‘z ijodida Y.Gaydndan tortib to D.Shostakovichgacha bo‘lgan davr “mumtoz simfoniya” yutuqlarini milliy musiqa kesimida qayta talqin etishga hamda ularni mumtoz maqom qonuniyatlari bilan uyg‘unlashtirishga erishdi. Bularning natijasi o‘laroq mumtoz o‘zbek simfoniyasi yuzaga keldi va uning dovrug‘i jahonga mashhur bo‘ldi. Xususan, M.Tojiyev jami 19 ta simfoniya ijod etgan bo‘lib, shulardan 3, 4, 5 va 8-simfoniyalari Qozog‘iston, Rossiya, Bolgariya, Yugoslaviya, Avstriya va boshqa xorijiy mamlakatlarda ijro etilgan.

◉ *M.Tojiyev asarlaridan namunalar tinglang.*

MATNIYOZ YUSUPOV

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, kompozitor, sozanda va xonanda Matniyoz Yusupov (1925-1992) Xorazm maqomlarini ustoz Matpano Ota Xudoyberganovdan o‘rgandi

Matniyoz Yusupov

hamda bu maqomlarni asrab qolishga katta hissa qo‘shdi. U Xorazm maqomlarini to‘liq turkum (ya’ni chertim va aytim yo‘llari) tarzida birinchi bo‘lib besh chiziqli nota tizimida yozib oldi. Shu bilan birga, Matniyoz Yusupov Xorazm xalq ashula va “Suvora”lari, qo‘shiq va laparlari,cholg‘u kuy va xalq musiqiy ijodi namunalarini jamlab, “O‘zbek xalq musiqasi” notalar to‘plamining VII va IX jildlarida nashr ettirgan edi.

Kompozitorlik sohasida bir qator musiqali drama va komediyalar, opera (“Xorazm qo‘shig‘i”), balet (“Gulsanam”) hamda simfonik musiqa va qo‘shiqlar (“Shifokor qiz”, “Dilim bilan” va b.) ijod etgan. Ashulachilik bobida esa Xorazm maqomlari, “Suvora”lari va xalq ashulalarining o‘ziga xos ijrochisi bo‘lgan.

CD yoki DVD disklardan foydalanib M. Yusupov asarlaridan namunalar tinglang.

△

NAVRO‘Z QO‘SHIG‘I

Nazarmat she’ri — *Rustam Abdullayev* musiqasi



Se - pin yo- zib nav - ba - hor,
Ke -lin bo‘-lar gul di-yor.
4 t.
Tog‘ - lar qo-ri yalt e - tar,
1 t.
Yer -ga i - liq taft ye -tar,
Ka-pa - lak - lar kayf e - tar.
Se - pin yo-zib nav- ba- hor,
Ke-lin bo‘-lar gul di - yor. Ke-lin bo‘-lar
3
gul di-yor.
4 t.
Nav-ro‘z el-

3
dan bosh - la-nar, Nav-ro‘z dil-
dan bosh - la- nar, 1 t. Nav-ro‘z gul-
dan bosh - la-nar, Se-pin yo-zib
nav- ba - hor, Ke - lin bo‘-lar
gul di- yor. Ke-lin bo‘- lar
gul di - yor. Ke-lin bo‘ - lar
gul di- yor. 3 t.

?! **BOSHQOTIRMA**



2. Aytim janrlaridan biri.
3. Qo‘l, oyoq va badan harakatlariga asoslangan san’at turi.
4. O‘zbek milliy kuy va ashulalarini yaratuvchi ijodkor.
5. “Tangalik bolalar” filmida ijro etilgan qo‘shiqning nomi.
6. Ohang tushunchasini ham anglatuvchi musiqiy atama.
7. XX asrda yuzaga kelgan san’at turi.
8. Inson tomog‘ida hosil qilinadigan tovush.
9. Simfoniya, opera kabi ko‘p ovozli janrlar ijodkori.
10. Murakkab sahnaviy musiqiy janr.
11. Aytimlarning takrorlanuvchi bandi.
12. Cholg‘ular jamoasi.
13. Spektakllar ijrosi uchun mo‘ljallangan maxsus bino.

IV CHORAK

O‘ZBEKISTONNING MUSIQA MADANIYATI

1-Mavzu. ZAMONAVIY O‘ZBEK MUSIQA MADANIYATI HAQIDA

Hozirgi davr o‘zbek musiqa madaniyati qadimiy va rango-rang, ayni paytda, yangi zamon an’analarini o‘zida mujassam etgan holda rivoj topmoqda. Bunda, eng avvalo, xalq musiqasi, an’anaviy mumtoz musiqa, bastakorlik va kompozitorlik ijodiyotlari hamda ommabop estrada qo‘shiqchiligi jabhalari namoyon bo‘ladi.

O‘zbek xalqining ma’naviy go‘zalligi asrlar qa’ridan kelayotgan kuy-ohanglarida o‘zining ajoyib va betakror badiiy ifodasini topgan. Binobarin, milliy musiqa ko‘p asrlar davomida shakllangan ajdodlarimiz boy ma’naviyatining sadolardagi jonli ifodasi bo‘lib, bugungi kunda yangi, buyuk davlat bunyodkori bo‘lmish xalqimizning ruh quvvati va jon ozig‘i bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu boisdan ham Respublikamizda milliy musiqa qadriyatlarimizni qayta tiklash va rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab ko‘rik-tanlov hamda festivallarning o‘tkazilishi an’anaga aylanib bormoqda. Xususan, bu o‘rinda “Alla”, baxshi-shoir va maqom ijrochilarining ko‘rik-tanlovlari muntazam o‘tkazilib kelinayotganligini aytish mumkin.

Ayni chog‘da, G‘anijon Toshmatov, Muhammadjon Mirzayev, Orifxon Hotamov, Fattohxon Mamadaliyev, G‘ulomjon Hojiqulov, Salohiddin To‘xtasinov, Abduhoshim Ismoilov, O‘lmas Rasulov singari yetuk san’atkorlar ijodida bastakorlik an’analari yangi bosqichga yuksaldi. Shuningdek, kompozitorlik sohasida Ikrom Akbarov, Mirsodiq Tojiyev, Mustafo Bafoyev, Mirxalil Mahmudov, Farhod Alimov, Bahrullo Lutfullayev, Habibulla Rahimov, Rustam Abdullayev va Nadim Norxo‘jayevlar barakali ijod qilib, talaygina musiqa asarlarini tinglovchilarga taqdim etdilar.

O‘zbek simfonik musiqalaridan tinglang.

Q a s h q a r c h a u s u l i.

Qashqarcha nomli zarb usuli 4/4 o‘lchovida namoyon bo‘lib, ritm tuzilishi jihatidan quyidagi ko‘rinishga ega:

Bu usulning an’anaviy og‘zaki (“bum-bak” bo‘g‘inlaridagi) ifodasi quyidagicha:

Bum ba - ka bum bak, bum

Bum-ba-ka-bum-bak, bum.

Qashqarcha usuli Soqiynomaga o‘xshash o‘lchov-ritm jihatlari bilan raqsbop usullardan hisoblanadi.

?! 1.Yangi davr O‘zbekiston musiqa madaniyati haqida nimalarni bilasiz?
2.Zamonaviy usulda ijod etgan bastakorlardan kimlarni bilasiz?
3.Qashqarcha usulini aniqlang?



4. Qashqarcha usulini 4/4 o‘lchovda o‘ng qo‘l harakati bilan dirijyorlik qilib, “bum-bak” bo‘g‘inida ifoda eting.

2–3-Mavzu. ATOQLI O‘ZBEK SAN’ATKORLARI VA MUSIQIY JAMOALARI

O‘zbekiston o‘z davlat Mustaqilligiga erishgan kundan boshlab uning musiqa san’ati rivojida katta o‘zgarishlar ro‘y bera boshladi. Bunda, eng avvalo, buyuk ajdodlarimizdan bebaho ma’naviy meros qolgan mumtoz musiqa (maqom, ashula, katta ashula, suvora va b.) asarlarini xalqimiz orasida

keng targ‘ib qilish ishlari juda muhim o‘rin tutmoqda. Albatta, bu kabi ijodiy ishlarni amalga oshirishda atoqli san’atkor-ijrochilarning xizmatlari beqiyosdir. Jumladan, otaxon san’atkorlardan – O‘zbekiston xalq artisti Turg‘un Alimatov maqomlarda mujassam ma’naviy go‘zalliklarni tanbur-u satoda, g‘ijjag-u dutorda badiiy “jonlantirib”, xalqimiz olqishiga sazovor bo‘lib kelmoqda. O‘zbekiston xalq artistlari G‘anijon Toshmatov, G‘ulomjon Hojiqulov, Abduhoshim Ismoilov, O‘lmas Rasulov kabi mahoratli sozandalar ham o‘zlarining betakror g‘ijjak nolalari, o‘ziga xos ijro sayqallari bilan mumtoz musiqa hamda zamondosh bastakorlarning asarlarini “bezak”lashga musharraf bo‘ldilar.

Shuningdek, O‘zbekiston xalq hofizlari Orifxon Hotamov, Fattohxon Mamadaliyev, Ochilxon Otaxonov, Muhammadjon Karimov, Quvondiq Iskandarov, Hasan Rajabiy, Mahmud Tojiboyev, O‘zbekiston xalq artistlari Otajon Xudoyshukurov, Munojot Yo‘lchiyeva va Maryam Sattorovalar maqom ashula yo‘llari, Yevropa hamda bastakorlar asarlarini go‘zal tarzda ijro etishga erishdilar.

Ayni paytda, mumtoz maqom va xalq musiqa ijodiyoti namunalarini tinglovchiga bekam-u ko‘st taqdim etishda O‘zbekiston Teleradiokompaniyasi huzuridagi Yunus Rajabiy nomidagi “Maqom” ansambli, O‘lmas Saidjonov rahbarligidagi an’anaviy ansambl, Xorazm viloyat televideniyesi huzuridagi Hojixon Boltayev nomidagi “Maqom” ansambli, O‘zteleradiokompaniyasi huzuridagi “Dutorchilar” ansambli singari ijodiy jamoalarning ham alohida o‘rni bor.

Shu bilan birga hozirgi davr O‘zbekiston musiqa san’atida asosan kompozitorlik ijodiyoti asarlarini yangi turda ijro etishga mo‘ljallangan jamoalar faoliyati ham ko‘zga tashlanadi. Bu borada ayniqsa “Sug‘diyona” xalq cholg‘ulari kamer orkestri, O‘zteleradio-kompaniyasi kamer orkestri, O‘zbekiston milliy simfonik orkestri, Doni Zokirov nomidagi xalq cholg‘ulari orkestri va To‘xtasin Jalilov nomidagi xalq cholg‘ulari orkestrining konsert chiqishlari e’tiborli bo‘lmoqda.

Ochilxon Otaxonov

Orifxon Hotamov

Turg‘un Alimatov

O‘lmas Rasulov

⊙ Sinf fonotekasida mavjud bo‘lgan Turg‘un Alimatov, Orifxon Hotamov, Fattohxon Mamadaliyev ijro etgan asarlardan namunalar tinglang.

EY O‘G‘UL

Salohiy she’ri *Orifxon Hotamov* musiqasi



Kech-ma-di san-din a-lar
zah-ru zaq-qum yut - gan -da ham.
Har ne-chuk dav-
lat-din or - tiq - dur sa-lo-mat- lik sen-ga,
Shu-kur-
lar tak-ror qil- ki, ke-cha-lar yot-gan - da ham.
mf
mf
f
Baxt yo‘-lim bog‘ - lan - ma-sun,

um-rim go‘-zal o‘t- sin, de- sang,
Er-ta yot-gil, er -ta tur -gil, yot-ma tong ot-gan-
da ham.
ff
Aq-li past, be - bah-ra-lar
f
il-mu hu-nar yuq-mas, si -ra Ib-ni
Si-no g‘or i- chin - da hik-mat o‘r-gat- gan-da ham.

ff
Ol-sa mard ol-sin bo-shing-ni,
mard-lar yo- ni-da bo‘l(ey), bor-ma no-mard
qo-shi-ga har-chand bo-shing qot-gan-da ham.
Ey Sa-lo - hiy, chek-ma ko‘p g‘am ba’-zi-

lar-haq-qin -da sen (ey), Boy be-rur be- bah-ra-lar
gav-har-ni uch-rat-gan- da- ham.
f
Ey Sa-lo-hiy,
chek-ma ko‘p g‘am ba’-zi-lar haq-qin- da sen,
Boy be-rur be- bah - ra-lar gav-har-ni uch-rat-
mf
gan-da ham.


Ey o‘-g‘ul, had-ding- da tur,
mf
o-tang se- ni sot- gan - da ham.
In-chu-nin mush-fiq o- nang - ni
mp
so‘z-la-ri bot-gan-da ham.
In-chu-nin mush-fiq
rit.
o- nang - ni so‘z- la-ri-yo
p
bot-gan - da ham.

△

USTOZLARIM

S. O‘rinov she’ri *H.Raximov* musiqasi

loq, tong-day ti- niq, ti-lak - la - ri,
yur-gan yo‘ - li man-gu por- loq.
Meh-ri-gi-yo, Us-toz-la - rim, So‘-zi zi-yo
3

Us-toz-la-rim.
A ...
A...
A...



Qaynoq qalbi misli chiroq,
Fikri tiniq – jo‘shqin buloq,
Tongday tiniq tilaklari,
Yurgan yo‘li mangu porloq.

Mehrigiyo, Ustozlarim,
So‘zi ziyo Ustozlarim.

Pur ma’no bor so‘zingizda,
Quyosh balqir yuzingizda.
Bashar Sizdan kamol topar,
Chechak unar izingizdan.

Mehrigiyo, Ustozlarim,
So‘zi ziyo Ustozlarim.

Havas qilar Sizga lochin,
Ko‘kka yozib keng qulochin.
Pok vijdon-u imon ila,
Oqlayapsiz el ishonchin.

“DUTORCHI QIZLAR” ANSAMBLI HAQIDA

1939-yili O‘zbek davlat filarmoniyasi qoshida “Dutorchi qiz-juvonlar” ansambli tashkil etilgan bo‘lib, unga xalqimizning sevimli san’atkorlari – Lutfixonim Sarimsoqova badiiy rahbar, Yunus Rajabiy musiqa rahbari va Gavhar Rahimova baletmeysterlik qilganlar. Ansambl ijro dasturidan “O‘zgancha”, “Quling”, “Tanavor”, “Hakkalakam o‘ynasam man”, “Yorginam” kabi o‘zbek xalq kuy va ashulalari hamda bastakorlarning asarlari o‘rin olgan.

1979-yil O‘zbekiston radiosi va televideniyesi qoshida qayta tashkil etilgan “Dutorchi qizlar” ansambli G‘anijon Toshmatov rahbarligida o‘z faoliyatini davom ettirgan edi. Bugungi kunda G‘.Toshmatov nomi bilan yuritilayotgan mazkur ansambl Roza Karimova rahbarligida o‘zbek xalq lapar, o‘lan va yallalari hamda bastakor va kompozitorlarning asarlarini maromiga yetkazib ijro etib kelmoqda. Ayniqsa ansambl ijro etgan “Chamannor”, “Yor-yoraxon-Gulyoraxon”, “Sim-sim oralab”, “Yo‘l bo‘lsin”, “Yor-yor”, “Sovg‘a”, “Yalo, yalo, yalo” kabi aytimlar xalqimiz orasida mashhurdir.

?! 1.Atoqli o‘zbek san’atkrolaridan kimlarni bilasiz?
2.“Ustozlarim” qo‘shig‘ini nota daftaringizga ko‘chiring va qo‘shiq she’rini yod oling.

4-Mavzu. TEATR SAN’ATI VA KONSERT IJROCHILIK FAOLIYATI

Teatr so‘zi yunoncha (theatran) bo‘lib, “tomoshaxona” ma’nosini anglatadi. Teatr o‘zida adabiyot, musiqa, sahna harakati, raqs, tasviriy san’at kabi san’at turlarini birlashtiradi.

Bugungi kunda Vatanimizda o‘ttizdan ortiq professional teatr faoliyat ko‘rsatmoqda. Shulardan musiqa san’ati alohida yetakchi ahamiyatga ega bo‘lganlari qatorida Alisher Navoiy nomli Davlat akademik Katta teatri, Muqimiy nomidagi o‘zbek Davlat musiqali teatrini aytish mumkin. Jumladan, Alisher Navoiy nomli Davlat akademik Katta teatrida asosan opera va balet janrlarida ijod etilgan asarlar sahnada namoyish etiladi. Hozirgi kunda mazkur teatr ijodiy jamoasi avstriya

kompozitori V.A.Motsartning “Figaroning uylanishi”, “Don Juan”, italyan kompozitori J.Verdining “Aida”, “Traviata”, “Rigoletto”, rus kompozitori P.I.Chaykovskiyning “Yevgeniy Onegin”, operasi hamda “Uyqudagi go‘zal”, “Oqqush ko‘li”, “Shelkunchik” baletlari, shuningdek o‘zbek kompozitorlaridan M. Ashrafiyning “Dilorom”, I. Akbarovning “So‘g‘d elining qoploni”, M.Bafoyevning “Sevgim samosi”, operalari, U. Musayevning “To‘maris”, A.Ergashevning “Humo” baleti va yana ko‘plab asarlarni sahna ijrosi orqali tinglovchiga taqdim etib kelmoqda.

Mustafo Bafoyev

Muqimiy nomli o‘zbek Davlat musiqali teatrida asosan o‘zbek ijodkorlari – T. Jalilovning “Tohir va Zuhra”, M.Mahmudovning “To‘ylar muborak”, F.Alimovning “Nodirabegim”, “Superqaynona”, “O‘lding, aziz bo‘lding”, B.Lutfullayevning “Taqdir”, “Alpomishning qaytishi” kabi musiqali drama asarlari namoyish etiladi.

Anvar Ergashev

Toshkentdagi Musiqiy teatr sahnasi esa operetta va muzikl janrlaridagi asarlarni ko‘rsatishga mo‘ljallangan.

Ayni vaqtda, Vatanimiz Mustaqil bo‘lgan davrdan boshlab teatrning yangi ko‘rinishlari bo‘lgan maydon tomoshalari ham yuzaga keldi. Bunga Mustaqillik, Navro‘z xalq bayramlari hamda shaharlarimizning qutlug‘ sanalari bilan bog‘liq ochiq maydonlarda o‘tkazilayotgan bayram tomoshalari misol bo‘lishi mumkin.

“O‘lding, aziz bo‘lding” musiqali dramasidan namunalar tinglang.

MAVLON OTA QO‘SHIG‘I

Normurod Narzullayev she’ri *Farhod Alimov* musiqasi

1.
der- lar u - mr - ni,
2.
ni.
Shod - lik, qay - g‘u
e -kan yon - ma - yon.
Bir be - da - vo
der - lar u - mr - ni.
Ha - yot e - kan o‘ - zi charx - pa -lak,
Bir mu - am - mo der - lar u - mr - ni
Bu o - mo - nat dun - yo - da, do‘st - lar,
Bir be - ba - ho der - lar u - mr - ni.


Bu jum - boq - ni ye - cha ol - may -
san (ey) jon, sa- rob ro‘ - yo
der- lar u - mr - ni.
san (ey) jon sa-rob ro‘ - yo
der- lar u - mr - ni.
Bir be - ba - ho der - lar u - mr -
ni.

“BOYSUN” FOLKLOR-ETNOGRAFIK ANSAMBLI

“Boysun” folklor-etnografik ansambli[1] Surxondaryo-Qashqadaryo viloyatlari ko‘hna xalq musiqa an’analarini atroflicha o‘rganib, ularni qayta tiklayotgan hamda sahna madaniyati orqali targ‘ib qilayotgan ijodiy jamoadir. Xususan, ansambl ishtirokchilari dehqonlarning yil fasllariga bog‘liq mehnat aytimlarini (“Mayda-yo mayda”, “Yanchiq”, “Ho, zan-zan” va b.), mavsumiy-marosim qo‘shiqlarini (“Navro‘z”, “Lolajon”, “Hey, lola” va b.), turli bayram, sayil va o‘yin-aytimlarini (“Kim oladi-ya shuginani-ya”, “Ha-ha-ha”, “Kelgin, yor, o‘ynaylik” va b.) katta ishtiyoq va mahorat bilan ijro etadilar.

KIM OLADI-YA SHUGINANI-YA



[1] Ushbu ansambl Surxondaryo viloyati, Boysun tuman madaniyat uyi qoshida tashkil qilingan bo‘lib, dastlab “Shalola” xalq ashula va raqs ansambli deb nomlangan edi.



Dehqonchilik mehnatining boshlanishi bahor fasliga to‘g‘ri keladi. Bu faslda an’anaviy “Navro‘z” bayrami va lola-gullar unib-o‘sishi bilan bog‘liq sayillar o‘tkaziladi. Xususan, “Lola sayli”da qir-adirlarga sayr qilinib, quchoq-quchoq lola terilgan

va u yoshlik, go‘zallik va bayram ramzi sifatida maxsus aytimlarda kuylangan. Bu an’ana hozirgi kunda ham davom etib kelmoqda.

?!

1.Teatr haqida qanday tushunchaga egasiz?
2.“Mavlon ota qo‘shig‘i” qaysi musiqali dramada kuylanadi?
3. Kompozitor A.Ergashevning qanday baletini bilasiz?
4. “Boysun” folklor-etnografik ansabli qaysi viloyatda faoliyat yuritadi va qanday asarlarni ijro etgan?
5. “Ustozlarim” qo‘shig‘ida qanday alteratsiya belgilari qo‘llanilgan va qaysi tonallikka mos?

5-6-Mavzu. TELEVIDENIYE VA KINO MUSIQASI HAQIDA

Ma’lumki, televideniye xalqimizga turli axborotlarni yetkazib berish bilan birga san’at turlarini (musiqa, tasviriy san’at, she’riyat, me’morchilik va b.) ham keng targ‘ib qilish imkoniyatiga ega. Albatta, bu borada musiqa san’atining mavqeyi alohida e’tiborga sazovor. Chunki, bugungi kun televideniyesini, undagi qariyb barcha ko‘rsatuv dasturlarini musiqasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bunga O‘zbekiston Teleradiokompaniyasi orqali har kuni efirga uzatilayotgan ko‘rsatuvlar yaqqol dalil bo‘la oladi.

Musiqaga bag‘ishlangan maxsus ko‘rsatuvlar esa turli-tuman musiqa namunalarini keng ommaga yetkazib berishi barobarida bu san’atning rivojiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, televideniye dasturlarida jahon klassik musiqasi durdonalarini, shuningdek, mumtoz maqomlar, xalq ijodiga doir qo‘shiq va kuylarni ko‘p eshitgansiz. “Ohangrabo” ko‘rsatuvi orqali atoqli san’atkorlar bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lgansiz.

Ayni paytda, baxshi-dostonchilar ijodi, folklor-etnografik ansambllarning muntazam chiqishlari ham tomoshabinda katta qiziqish uyg‘otadi.

Shuningdek, televideniyening estrada musiqasining rivojiga juda sezilarli ta’siri borligini aytish zarur. Bugungi kunda O‘zbekistonda mashhur barcha estrada qo‘shiqchilari yoki guruhlari videokliplarning namoyish etilishi orqali xalqimizga tanilganlar, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mirxalil Mahmudov

Aziz o‘quvchilar!

Sizlar televideniye ko‘rsatuvlarida musiqa naqadar muhim o‘rin tutishini yaxshi anglagan bo‘lsangiz, endi e’tiboringizni ana shu televideniye hamda maxsus tomosha zallarida namoyish etiladigan kino san’atiga ham qarating. Ma’lum bo‘ladiki, avval va hozir yaratilgan badiiy va hujjatli filmlarni, qolaversa, Siz sevib tomosha qiladigan multfilmlarni ham musiqasiz tasavvur eta olmaymiz. Bu borada esa O‘zbekiston kompozitorlarining har bir kino uchun maxsus ijod etgan musiqa namunalarining ahamiyati katta. Masalan, “O‘tkan kunlar”, “Tangalik bolalar” badiiy filmlariga kompozitor Mirxalil Mahmudov yaratgan serma’no kuy va qo‘shiqlari o‘zgacha tarovat bag‘ishlaydi. Shu kabi go‘zal holatlarni “Umid qaldirg‘ochlari”, “Asrlarning jonli kamalagi” hujjatli filmlarida, “Bulbul”, “Daladagi gullar” va yana boshqa ko‘plab multfilmlarda his qilishingiz mumkin.

⦿ *“Tangalik bolalar” filmidan “Tulpor” qo‘shig‘ini tinglang.*

TULPOR

Usmon Azim she’ri — *Mirxalil Mahmudov* musiqasi

Vals sur’atida

Tul -por, tul-por,
tul- por, tul- por, be- li -da e -gar, be- li -da e -gar.
Sha- mol, sha-mol, sha-mol, sha-mol, nov-da-ni e-gar,
nov - da - ni e - gar, yu - ra - gim, yu - ra - gim,
yu-ra-gim, yu- ra-gim tul- por bo‘l-sa.
Bu- lut, bu- lut, bu- lut, bu-lut bo- shim-ga te-gar.
Qir-g‘iy qa-no- tin yo- zar, qir-da aq-li-
dan o - zar. Men qir -lar -da yu- gur - sam,
o- lam- ni sha- mol bo - sar.

△

VATANGINAM

Po‘lat Mo‘min she’ri *Avaz Mansurov* musiqasi

Vals sur’atida



Manim uchun olamdayin
Kattaginam Vatanginam.
Oq sut bergan onamdayin,
Bittaginam Vatanginam.

N a q a r o t:
Baxtimga tong – O‘zbekiston,
Baxtimga tong – O‘zbekiston,
Vatanginam, Vatanginam,
Vatanim...

Gul faslida ohorlarga
Aylanaqol, Vatanginam,
Qo‘shig‘imda ohanglarga
Aylanaqol, Vatanginam.

N a q a r o t
Vujudimga gulday mehring
O‘ydingmi yo, Vatanginam?
Yuragimga butun mehring
Qo‘ydingmi yo,Vatanginam?
N a q a r o t

“Tangalik bolalar” filmidan parcha ko‘rish va musiqa tinglash.

?! 1.O‘zbekiston televideniyesi orqali namoyish etiladigan qanday musiqiy ko‘rsatuvlarni bilasiz?
2.“Vatanginam” qo‘shig‘ini yod oling.
3. M.Mahmudovning qanday kino musiqalarini bilasiz?
4. “Bulbul”, “Daladagi gullar” multfilmlarining musiqalarida nimani his etasiz?
5. “Tulpor” qo‘shig‘i qaysi kinoda va kim tomonidan ijro etiladi?

7-Mavzu. O‘ZBEK MUSIQA SAN’ATINING JAHON SAHNASIGA CHIQISHI

Sunnat Ibrohimov

Istiqlol sharofati bilan milliy-badiiy qadriyatlarimiz qayta tiklanmoqda, Vatanimiz qo‘shni va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan yaqin madaniy-musiqiy aloqalarni ham o‘rnata boshladi. Endilikda o‘zbek musiqa san’atining jahon sahnalarida yuksalayotganligini faxr bilan qayd etamiz. Bunga, jumladan, O‘zbekiston kompozitorlari asarlarining yirik va nufuzli xorijiy ijrochi jamoalari repertuarlaridan o‘rin olishi, yetuk san’atkorlarimiz — Turg‘un Alimatovning AQSH va Germaniyada, Abduhoshim Ismoilovning AQSH, Fransiya, Germaniyada, Munojot Yo‘lchiyevaning Fransiyada, Milliy simfonik orkestrining Turkiyada, “Sug‘diyona” o‘zbek xalq cholg‘ulari kamer orkestrining Ispaniya, Gollandiya, Germaniya, Hindistonda, “Yalla” ansamblining AQSHda zafarli konsert chiqishlari yorqin dalildir.

Shuningdek, xalqaro tanlovlarda muvaffaqiyatli qatnashib kelayotgan o‘zbek sozandalari va xonandalarining ham xizmatlarini alohida ta’kidlash kerak. Bu o‘rinda xalqaro tanlovlarning g‘oliblari bo‘lgan pianinochilardan Ulug‘bek Polvonov, Nargiza Aliyeva, Gulnora Alimova, violonchel ijrochilari Dilshod Nazarov, Sunnat Ibrohimov, xonanda Anna Guzairova kabi yosh san’atkorlarimiz nomini hurmat bilan tilga olamiz.

Ayni paytda, O‘zbekistonda xalqaro ahamiyatga molik katta musiqa tadbirlari o‘tayotganligi ham e’tiborli bo‘lmoqda. Jumladan, Samarqand shahrida “Sharq taronalari”, Toshkentda esa Simfonik musiqa festivallarini o‘tkazish an’ana bo‘lib qoldi.

HUNARMAND YOSHLAR MADHIYASI

Qo‘ldosh Mamirov she’ri va musiqasi

do‘s- tim, yod-da- tut.
Biz aj-dod- ning vo- ris av- lod - la-ri - miz,
Ku-tar ke- la - ja gi bu-yuk o - na yurt.
Ku-tar ke - la - ja - gi bu-yuk o -na yurt.
Biz aj-dod -ning vo-ris av - lod - la - ri - miz
ku - tar ke - la - ja - gi
bu- yuk o - na yurt.

△

SAMARQAND

Safar Barnoyev she'ri *Habibullo Rahimov* musiqasi



YURT ISHQIDA YONAMAN

Normurod Narzullayev she'ri *Farrux Zokirov* musiqasi



Ko‘z - ga sur - tib tup - ro - g‘in.
Hur - lik qo‘ - shi - g‘in kuy - lab,
O‘- pa-man yurt bay-ro- g‘in. Yal-la, yal-la, yal-la- man,
Yurt ish - qi - da yo - na - man!
Yal- la, yal-la, yal -la - man, Ta-ro- na-man, al- la- man.
El-dan o- lib il-ho- mim, Yurt ish- qi - da yo - na-man!
O- dam o - dam- ni dey - di,
Sog‘ - lom o- lam- ni dey - di.

O-shiq ah-li va- fo-li, So-diq sa-nam- ni dey -di.
Sa - do - qat - dan kuy - lay - man,
O - qi - ba - tin o‘y - lay - man.
Mu- hab- bat - siz ha- yot yo‘q, Sa-o-dat-dan so‘y-lay- man.
Yal- la, yal-la, yal -la-man, Ta-ro- na -man, yal- la -man.
El- dan o- lib il -ho- mim, Yurt ish- qi -da yo - na- man!
Yal- la, yal- la, yal -la-man, Ta-ro- na -man, al- la -man.
El-dan o-lib il-ho- mim, Yurt ish- qi - da yo - na- man!

So‘g‘diyona kamer orkestri.

“So‘g‘diyona” xalq cholg‘ulari kamer orkestri 1991-yili tuzilgan bo‘lib, uning tarkibi rubob, rubob prima, g‘ijjak, g‘ijjak bas, g‘ijjak kontrabas, nay, qo‘shnay, qashqar rubobi, afg‘on rubobi, dutor, dutor bas, chang, qonun kabi cholg‘ulardan iborat. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Feruza Abdurahimova rahbarlik qilayotgan “So‘g‘diyona” kamer orkestri repertuarida O‘zbekiston kompozitorlarining asarlari bilan birga jahon mumtoz musiqa namunalari ham o‘rin olgan.

Orkestr shu o‘tgan yillar ichida nafaqat respublikada, balki Germaniya, Fransiya, Turkiya, Qozog‘iston va boshqa

xorijiy mamlakatlarning konsert sahnalarida o‘zbek cholg‘u ijrochiligi san’atini munosib namoyish etib kelmoqda.

?! 1. Xalqaro miqyosda tanilgan qaysi O‘zbekiston san’atkorlarini bilasiz?
2. “So‘g‘diyona” xalq cholg‘ulari kamer orkestri tarkibida qanday cholg‘ular bor?
3. “Yurt ishqida yonaman” qo‘shig‘ida qanday g‘oya ilgari surilgan?
4. “Samarqand” qo‘shig‘ining ladini aniqlang va boshlang‘ich o‘n taktini nota vositasida (solfejio) kuylang.

Avj – osmon, ko‘k, yuksalish va uning eng yuqori cho‘qqisi. Maqom cholg‘u kuy va aytimlarining yuqori pardalardagi eng rivojlangan darajasi.

Aytim yo‘li – Xorazm maqomlarida aytim (ashula)lar bo‘limining umumiy nomi. Shuningdek, bu bo‘lim “manzum” deb ham ataladi.

Bayot – turk qabilalaridan birining, shuningdek, ma’lum maqom nomi. Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘llari tarkibida har biri besh qismdan iborat “Bayot IV” va “Bayoti-Sheroziy IV” turkumlari mavjud.

Baxshi – do‘mbira, qo‘biz yoki dutor jo‘rligida dostonlar ijrochisi, shuningdek, yangi dostonlar ijodkori.

Bozg‘oy – maqom cholg‘u kuylari (Tasnif, Tarje, Gardun, Muxammas, Saqil) da o‘zgarmay takrorlanuvchi kuy tuzilmasi.

Buzruk – buyuk, katta, ulug‘. Shashmaqom tizimidagi birinchi maqom nomi.

Bulamon – tut daraxtidan ishlangan surnay shaklli puflama cholg‘u. Hajmi surnaydan kichik, tovush hosil etuvchi puflamasi sibiziqniki kabidir, ya’ni puflama naychasida qamishdan tayyorlangan “tilchasi” bor. Bulamonda barmoqlar bilan bosishga mo‘ljallangan sakkizta teshik mavjud.

Daromad – yo‘lning boshlanishi. Maqom aytim yo‘llari (Saraxbor, Talqin, Nasr va b.) da ashulaning boshlanish (hofiz kuylashni boshlagan) qismi.

D u g o h – ikki joy, ikki o‘rin, ikki parda. Qadimda ikki parda (tovush) asosida ijro etilgan kuy nomi. Keyinchalik (O‘rta asrlarda) rivojlantirilib, keng nafasli kuy holiga keltirilgan. Shashmaqom tizimida to‘rtinchi maqom nomi.

D u n a s r – maqomlarda boshlang‘ich kuy yoki aytim tuzilmasi (bo‘lagi)ning yuqori (odatda, bir oktava yuqori) pardalarda takrorlanishi.

D o‘ m b i r a – o‘rik, tut yoki archa daraxtidan o‘yib ishlangan ikki torli chertma cholg‘u. Dutordan o‘ziga xos “bo‘g‘iq” tovushi, nisbatan qisqa dastasi va dastasida bog‘lama pardalari yo‘qligi bilan farq qiladi.

F o l k l o r – inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, bunda folk *(folk)* – xalq, lor *(lore)* – donishmandlik, bilimdonlikni anglatadi. Bundan “xalq donishmandligi” ma’nosi kelib chiqadi. Folklor atamasi “xalq og‘zaki ijodi”, “musiqiy folklor” iborasi esa “xalq musiqasi” o‘rnida ham qo‘llaniladi.

G u l y o r - S h a h n o z – besh qismli mashhur Farg‘ona – Toshkent maqom aytim yo‘li. 1-qismi Gulyor, 2-qismi Shahnoz, 3-qismi Chapandozi Gulyor, 4-qismi Ushshoq va 5-qismi Qashqarchai Ushshoq deb nomlanadi.

I r o q – Arabistondagi ma’lum mamlakat nomi. “Uzoq”, “Olis yo‘l” ma’nolarida ham keladi. Shashmaqom tizimidagi oltinchi maqom nomi.

M a j o r – (*lot.* katta) turg‘un tovushlari (I,III va V bosqichlari) ning yig‘indisi katta (ya’ni major) uchtovushligini hosil etuvchi tuzuk.

M a n s u r – Xorazm maqomlarida cholg‘u kuylari bo‘limining umumiy nomi. Shuningdek, ushbu bo‘lim “chertim yo‘li” deb ham ataladi.

Manzum – Xorazm maqomlari aytim bo‘limining umumiy nomi. Shuningdek, bu bo‘lim “aytim yo‘li” deb ham ataladi.

Minor – (*lot.* kichik) turg‘un tovushlari (I,III va V bosqichlari)ning yig‘indisi kichik (ya’ni minor) uchtovushligini hosil etuvchi tuzuk. Minor majordan farqli o‘laroq, ko‘proq g‘amgin holatlarni ifoda etishga moyildir.

Mirzadavlat – XIX asr oxiri XX asr boshlarida Farg‘onada yashab faoliyat ko‘rsatgan Mirzadavlat ismli bastakor ijodiga mansub ikki qismli cholg‘u kuyi. Xalq orasida mashhur bu kuy asosida qo‘shiqlar ham aytilgan.

Miyonxat – maqom aytim yo‘llarida ashulaning o‘rta pardalarda (odatda, daromadga nisbatan kvarta-kvinta balandlikda) ijro etiladigan bo‘lagi, tuzilmasi.

Mushkilot – qiyinchiliklar. Shashmaqom cholg‘u kuylari bo‘limining umumiy nomi.

Navo – kuy, nolali ohang. Shashmaqom tizimidagi uchinchi maqom nomi.

Nasr – ko‘mak, zafar, g‘alaba (proza). Shashmaqom aytim yo‘llari bo‘limining umumiy nomi.

Naqsh – bezak; ma’lum aytim (ashula) turining nomi. Xorazm maqomlarining “manzum” bo‘limi tarkibidan o‘rin olgan.

Peshrav – oldinga intiluvchi; yuksalma harakatli ohanglar asosida ishlangan ma’lum kuy shakli. Xorazm maqomlarining “mansur” (chertim yo‘li) bo‘limlarida keng qo‘llaniladigan cholg‘u kuyining nomi.

Qo‘biz – torli-kamonli cholg‘u bo‘lib, u o‘yma kosa, yog‘och dasta va ikki tordan iborat bo‘ladi. U kamon vositasida chalinadi.

Q o‘ sh n a y — ikkita qamish nayning o‘zaro bog‘lanmasidan iborat puflama cholg‘u. Naylarning bir tomonidan tovush hosil etish uchun tilchalar yo‘nilgan bo‘ladi hamda har birining oltita yoki yettita teshigi bor. Odatda, qo‘shnay ijrochisi bo‘lgan kasbiy sozandalar (qo‘shnaychilar) “qaytarma nafas” usulidan keng foydalanadilar.

R o s t — to‘g‘ri, chin, haqiqiy. Shashmaqom tizimidagi ikkinchi maqom nomi.

S a r b o z c h a — (*fors.-toj.*) bosh o‘yinchi, o‘zini fido etuvchi ma’nolarini anglatadi. Sarbozlar Turkiston xonliklaridagi harbiy qismlarning askarlari bo‘lganlar. “Sarbozcha” kuyi ana shu harbiylarning jangovar ruhini, dadil odimini badiiy ifoda etadi.

S a r a x b o r — bosh xabar, bosh mavzu.Tarona(I — IV, I — VI).Shashmaqom bosh aytim yo‘li.

S a t o — torli — kamonli cholg‘u (tashqi qiyofasi tanburni eslatadi). Satoda asosan vazmin sur’atli mumtoz musiqa namunalari ijro etiladi. Musiqa amaliyotida ba’zan tanburni sato o‘rnida, ya’ni kamon bilan chalish hollari uchraydi. Satoning uchta yoki to‘rtta asosiy simlari (torlari) bo‘lib, ular tagidan tortilgan va dastagorning yon quloqlariga bog‘langan aks sado beruvchi 8—11 ta torlari bor.

S e g o h — uch joy, uch o‘rin, uch parda. Qadimda uch parda (tovush) asosiga qurilgan kuy nomi. O‘rta asrlar kasbiy musiqa amaliyotida rivojlantirilgan va keng nafasli kuy shakliga keltirilgan. Shashmaqom tizimidagi beshinchi maqom nomi.

S i b i z i q – (sibizg'a) — oddiy qamishdan yasalgan puflama cholg'u bo'lib, uzunasiga ushlab chalinadi. Puflama tomonida "tilcha" kesilgan bo'ladi, old tomonida barmoqlar bilan bosishga mo'ljallangan uchta teshikchasi bor.

S i m f o n i y a – — *(yunoncha)* – "hamohanglik" ma'nosini anglatadi. Simfonik orkestri uchun mo'ljallangan musiqa asari. Odatda 4 qismdan iborat turkumli asar. Shuningdek, ba'zan ko'proq (5) va kamroq (1 gacha) qismli simfoniyalar ham uchraydi.

S u v o r a – — otliq; Xorazm maqomlarining "manzum" bo'limidan o'rin olgan muayyan aytimning nomi. Ustozlarning fikricha, "Suvora" ot tuyog'idan hosil bo'ladigan turli ritmik tuzilmali usullar va ularga asoslangan kuylardir.

S u i t a – — "ketma-ketlik, bir qatorlik" ma'nosini bildiradi. Yevropa san'atida shakllangan ko'p qismli cholg'u musiqaning asosiy turlaridan biri. Umumiy g'oya bilan bog'langan, ammo mustaqil va o'zaro farqli bir necha qismlardan tarkib topadi.

T a l q i n – — *(arabcha)* – pand-nasihat, tushuntirish, ko'rsatma berish. Maqom asosiy aytim yo'llaridan.

T a n b u r – — torli-chertma cholg'u. Noksimon o'yma kosasi va unga ulangan uzun dastasi tut yog'ochidan tayyorlanadi. Dastasida 16 tagacha bog'lama pardasi bor, kosa qopqog'iga 4 ta cho'p (xas) parda yelimlangan bo'ladi. Torlarining soni uchtadan oltitagacha bo'lishi mumkin. Hozirgi davrda ko'proq uch-to'rt simli (torli) tanburlar amaliyotda keng qo'llaniladi.

Tanbur chizig‘i – XIX asrda Komil Xorazmiy tomonidan kashf etilgan o‘ziga xos “nota yozuvi”ning nomi. Unda tanbur cholg‘usi pardalariga muvofiq 18 ta muvoziy chiziqlar bo‘lib, tovushlar nuqtalar vositasida belgilangan.

Tarona – qo‘shiq, ashula ma’nolarini bildiradi. Maqomlarda asosiy aytim yo‘llari (Saraxbor, Tani maqom, Talqin, Nasr va b.) orasida qo‘llaniladigan va bir aytimdan ikkinchi asosiy aytimga o‘tishda bog‘lovchi “vazifasini bajaruvchi” ixcham shaklli ashula. Ko‘proq ruboiylar bilan aytiladi.

Xat – maqom aytim yo‘llarida ashulaning bir bayt (ikki misra) she’r bilan aytiladigan kuy tuzilmasi, bo‘lagi.

Xona – uy, nisbiy tugal shakldagi kuy tuzilmasi (xonasi). Xona Bozgo‘ydan farqli o‘laroq, o‘zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo‘lib, kuyning o‘z avji (cho‘qqisi) tomon rivojida muhim o‘rin tutadi.

O‘n ikki maqom – (Duvozdah maqom) XIII – XVII asrlarda Sharq musiqa amaliyotida mashhur maqomlar tizimi: Ushshoq, Navo, Busalik, Rost, Husayniy, Hijoz, Rahoviy, Zangula, Iroq, Isfaxon, Zirafkand, Buzurg (Buzruk). O‘n ikki maqomning kuy, parda va doira usul asoslari Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg‘ona–Toshkent maqom yo‘llari kabi maqomot turlari kelib chiqishida muhim o‘rin tutgan.

Shashmaqom – 1. Har biri o‘z nomiga ega olti xil mukammal pardalar uyushmasi: Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq.
2. Oltita mukammal pardalar uyushmasi va muayyan doira usullari birligi asosida ijod etilgan cholg‘u kuy va aytim (ashula)lar turkumi (majmuasi).

Shodiyona – qadimdan to‘y, bazm, sayil va boshqa xalq bayramlarida nog‘ora va surnayda ijro etiladigan 12 qismli kuy nomi. Shodiyona turkumining har bir qismi alohida ritm tuzilishli zarb usuliga ega bo‘lib, ular ba’zan yakka nog‘orada chalinadi.

Chang – trapetsiya shaklli torli – urma cholg‘u. Unda jami 40 ta tor bo‘lib, ular 14 ta asosiy torlarga birlashadi. Shulardan 13 tasi uchtadan taqsimlangani holda, quyi yo‘g‘on tori bittadir. Torlar ikkita cho‘p vositasida urib va chertib (tirnab) chalinadi.

Changqobuz – maxsus tilchali cholg‘u, temir yoki suyakdan tayyorlanadi.Temir changqobuz, odatda, aylana shaklda bo‘ladi. Uning o‘rtasidan 7 – 9 *sm* uzunlikda po‘lat til o‘tkaziladi. Changqobuzni chalish uchun uni chap qo‘l bilan tishlarga bosib turish kerak va ayni vaqtda, o‘ng qo‘lning ko‘rsatkich barmog‘i ta’sirida tilchani to‘lqinlantirib turish lozim. Bu cholg‘uni nafaqat kattalar, balki bolalar ham sevib chaladilar.

Chertim yo‘li – Xorazm maqomlarida cholg‘u kuylari bo‘limining umumiy nomi. Mazkur bo‘lim “mansur” deb ham yuritiladi.

Chorgoh – to‘rt joy, to‘rt o‘rin, to‘rt parda; qadimda to‘rt pardaga asoslangan ma’lum kuy nomi. Farg‘ona—Toshkent maqomlaridan mashhur (“Chorgoh I—V”) aytim va cholg‘u kuylarining nomi.

Cho‘ponnay (g‘ajir nay) – uzunasiga ushlab chalinadigan puflama soz bo‘lib, u cho‘l burguti (g‘ajir)ning qanot suyagidan tayyorlanadi. G‘ajir nayda barmoqlar bosilishiga doir to‘rtta teshikcha bo‘lib, shulardan uchtasi old tomonda, bittasi esa nayning quyi qismida joylashgan bo‘ladi. G‘ajir nay, asosan, cho‘ponlar tomonidan sevib ijro etilganligi bois, uni goho “cho‘pon nay” deb ham ataydilar.

MUNDARIJA

So‘zboshi 3
O‘zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi 4

I CHORAK
XALQ MUSIQASINING MAHALLIY USLUBLARI

1-Mavzu. Surxondaryo – Qashqadaryo musiqa uslubi haqida tushuncha 6
2-Mavzu. Buxoro – Samarqand musiqa uslubi haqida tushuncha 13
3-Mavzu. Sozanda san’ati 18
4-Mavzu. Farg‘ona – Toshkent musiqa uslubi haqida tushuncha 23
5-Mavzu. Katta ashula va Yallachilik san’ati 28
6-Mavzu. Xorazm musiqa uslubi haqida tushuncha 32
7-Mavzu. Xorazm dostonchilik an’analari..... 37
8-Mavzu. Xorazm ashulachilik san’ati 42

II CHORAK
MAQOMLAR HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

1-Mavzu. Maqom tushunchasi.Shashmaqom 45
2-3-Mavzu. Shashmaqomning cholg‘u (mushkilot) va ashula (nasr) bo’limi 50
4-Mavzu. Xorazm maqomlari..... 60
5-Mavzu. Xorazm maqomlarining aytim yo‘li 64
6-Mavzu. Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘llari 67

III CHORAK
O‘ZBEK MUSIQA SAN’ATINING JAHON MUSIQA SAN’ATIDA TUTGAN O‘RNI

1-Mavzu. Jahon musiqa madaniyati haqida 79
2-Mavzu. Sharq allomalari musiqa haqida 82
3-Mavzu. Jahon musiqasi rivojining asosiy bosqichlari 84
4-Mavzu. Vena klassik maktabi namoyandalari 87
5-Mavzu. XIX – XX asrlar musiqa madaniyati. Musiqada impressionizm 91
6-7-Mavzu. XX asr O‘zbekiston musiqa madaniyatiga doir 100
8-Mavzu. O‘zbek musiqasida kompozitorlik ijodiyoti 106
9-Mavzu. Mirsodiq Tojiyev ijodida o‘zbek simfoniyasining yuksalishi 111

IV CHORAK
O‘ZBEKISTONNING MISIQA MADANIYATI

1-Mavzu. Zamonaviy o‘zbek misiqa madaniyati haqida 116
2-3-Mavzu. Atoqli o‘zbek san’atkorlari va musiqiy jamoalari 117
4-Mavzu. Teatr san’ati va konsert ijrochilik faoliyati 130
5-6-Mavzu. Televideniye va kino musiqasi haqida 137
7-Mavzu. O‘zbek musiqa san’atining jahon sahnasiga chiqishi 142
Musiqa lug‘ati 151

Oqilxon Ibrohimov, Jamil Sadirov

MUSIQA

7-sinf uchun darslik
Qayta ishlangan va to‘ldirilgan nashri

Muharrir *Munojot Abralova*
Badiiy muharrir *Shuhtat Mirfayozov*
Texnik muharrir *Yekoterina Koryagina*
Musahhih *Dono To‘ychiyeva*
Kompyuterda sahifalovchilar *Bobur Tuxtarov, Umida Valijonova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 290. 04.11.2016
Bosishga 2017-yil 10-iyulda ruxsat etildi.
Bichimi 60 x $90^{1}/_{16}$. Times garniturasi. Ofset bosma.
10,0 shartli bosma toboq. 11,5 nashr bosma tobog‘i.
Adadi 495322 nusxa. 327-raqamli buyurtma.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining
G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa
ijodiy uyida chop etildi.
100128. Toshkent. Labzak ko‘chasi, 86.

www.gglit.uz info@gglit.uz